

ISSN-2181-3426

OpenAIRE

Google
Scholar



Academic
Resource
Index
ResearchBib

zenodo

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION



VOLUME 2, ISSUE 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND EDUCATION

Volume 2, Issue 1, January 2023.

Editor-in-chief: DSc. S.M.Matkarimova – Urgench state university

Editorial Board:

U.Abdullayev – DSc, Urgench state university

A.Urazboyev – DSc, Urgench state university

B.Nurullayeva – DSc, Urgench state university

H.Matyakubov – PhD, Urgench state university.

N.Matkarimova – PhD, Urgench state university

Sh. Allaberganov – PhD, Urgench state university

R.Anyozov – PhD, Urgench state university

B.Jumaniyazov – PhD, Urgench state university

Z.Karimov – PhD, Urgench state university

I.Nurmetov – PhD, Urgench state university

X.Saidov – PhD, Urgench state university

ISSN-2181-3426

This journal is based on Certificate No. 1621

Frequency: monthly

Country: Uzbekistan

Language: uzbek, english, russian

Star year: 2022

E-mail: ziyo.scientific@bk.ru

Web-site: www.re-search.uz

OLIMA VA FOZILA AYOL

Bekturdiyeva Shoxina Qurbonboy qizi

Urganch davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola adabiyotshunos Munavvara Salayevaning hayoti va ilmiy faoliyatiga bag‘ishlangan. Olimning jahon ilm-fani va yoshlar tarbiyasiga qo‘shgan hissasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Olim ayol, “G‘alabaning 40 yilligi” va “50 yil” ko‘krak nishonlari, “Mehnatdagi alohida xizmatlari uchun” ko‘krak nishoni, Kariya Niyoziya nomidagi ko‘krak nishoni, 1994 yil “Shon-sharaf”

Annotation. This article is devoted to the life and scientific activities of the literary critic Munavvara Salaeva. The contribution of the scientist to world science and education of youth is described..

Keywords. Woman scientist, badges "40 years of Victory" and "50 years", badge "For special merits in labor", badge named after Kariya Niazia, "Glory" in 1994.

Аннотация. Данная статья посвящена жизни и научной деятельности литературоведа Мунаввары Салаевой. Описывается вклад ученого в мировую науку и воспитание молодежи.

Ключевые слова. Женщина-ученый, Нагрудные знаки «40 лет Победы» и «50 лет», нагрудный знак «За особые заслуги в труде», нагрудный знак имени Кария Ниязия, «Слава» в 1994 г.

Kirish

O‘tgan zamonlarda ayollarning jamiyatga kirib kelishi, erkaklar bilan teng ishlashi murakkab ish edi. Xatto, XX asrning o‘rtalariga qadar bunday xarakterlarga jur‘at etolmaganlar qahcha. Ammo, biz so‘z yuritmoqch bo‘lgan qalbi she‘riyatga oshufta, noziktab, hushmuomila, go‘zallik va so‘z shaydosi Munavvara opa bundan mustasno. Adabiy tilda lutf ila sodda, oxista, ravon suhbat qurishni ma‘qul ko‘ran bu ayol yurtimizda filolo‘giya fanlari nomzodi ilmiy unvonining birinchi qatoridagi sohibasi edilar. Shuningdek, dastlabki raxbar ayollardan biri bo‘lib, uzoq yillar “Uzbek tili va adabiyoti” kafedrasini boshqargan Qanchadan-qancha murabbiy, ustozlar tarbiyalab, qanchadan-qancha qalblarga so‘zning sexri, mohiyati va jilosini mumtoz adabiyot jozibasini jo etgan olima UrDU tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning ovozi shikasta, lekin juda tiniq, she‘rni juda ifodali o‘qir, har so‘zning ma‘no yukini teran ilg‘agan.

Matematik ustoz S.Masharipova u kishsini “hazrat Navoiy ta‘biri bilan aytganda “Muomalapardoz” ta‘rifiga aynan mos tushadigan Munavvara opa siyosat odami ham edilar” [1].

Mavzuga oid adabiyotlar va manbalar tahlili.

Ushbu maqola olima Munavvara Salayeva bilan birga ishlagan ustozlarning, olimaning shogirdlarning suhbatlari, olima ishlagan kafedraning jamoasi fakrlari asosida yozildi.

Universitetning faxriy professor-o'qituvchilari S.Masharipova va T.Qalandarovalarning "Qadriyatlar e'zozi" risolasidagi materiallarga asosiy urgu berildi [2]

Tadqiqot metodologiyasi.

Olima xaqidagi fikrlar fanning tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy –solishtirmasi, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari va suxbat uslubi asosida yozildi.

Tadqiqot natijalari.

Ko'p yillar institut partiya tashkilotining kotibasi bo'lib ishlagan Munavvara Solayeva mehribon ustoz, jonkuyar maslahatgo'y dardkash, fidoyi ayolldir. Bu yerdagi faoliyati opaga mardu maydon deya ta'rif berishga to'la asos bo'ladi. O'sha paytlarda Kommunistik mafkura bosimi kuchli bo'lgan davrlarda ham Munavvara opa Navro'z bayramlarini tashkil qilganlar. Ustozlarning aytishlaricha, Munavvara Yoqubova bilan Munavvara Solayeva viloyat yoshlariga faqat ilm sohibalari faol ayol sifatidagina namuna bo'lmaganlar, balki tashabbuskor, jasoratli tashkilotchi sifatida ham o'rnak bo'lganlar. Viloyatdagi ziyoli, olim, yetakchi ayollardan uyushma tuzib, unga "Xorazm gullari" deb nom berganlar [3].

Uyushma bugungi kunda "Olima ayol" nodavlat-notijorat tashkiloti olib borayotgan faoliyatga yaqin bo'lgan ishlarni o'sha davrdayoq boshlab bergan edi. Insonlarga ezgulik va ma'rifat ulashish zavqi bilan yashash, hayotning mazmuni, komillikning besarhad jihatlarini anglash, aniqlash va uni yoshlarda, zamondoshlarda tarkib toptirish Munavvara opaning hayot falsafasi, faoliyat mezoni edi. Shu boisdan ham uning Munavvar yodi dillarni nurafshon etib, qalblarda mangu yashayveradi.

"Munavvara Solayeva bilan ustoz-shogird sifatida birga ishlash, qo'shni sifatida bordikeldi qilish, safarlar, yig'ilishu kengashlarda yonma-yon o'tirish, maslahat, hamkorlik bizni qalban mahkam bog'lagan edi. Domladagi poklik, talabchanlik, sabr-bardosh kabi xususiyatlar, birovlar ko'nglini og'ritmaslik, iloji boricha ko'maklashish fazilatlarini barcha uchun o'rnak bo'lib qoladi. Ustozning oramizdan ketganlariga ko'p vaqt bo'lishiga qaramasdan, hamon davralarimizda, xotiralarda barhayotdirlar"-deydi T.Qalandarova[4]

"Iste'dodli, faol talaba – ustozning qanoti, maslahatli ish bo'lsa, eshigim siz uchun doimo ochiq, istalgan paytda uyimga ham kelaveringlar", deyish uning shiori bo'lgan.. Ko'rinishidan salobatli, har bir o'giti talabalar uchun tillodan qimmat bo'lgan domlaning samimiyligi talabalarni lol qoldirgan. Aslida, ustoz-shogirdlar ham uch toifa bo'larkan: Umumiy ustoz-shogirdlar, safdosh ustoz-shogirdlar, sirdosh ustoz-shogirdlar. Ustoz haqiqiy murabbiy, ajoyib inson, fidoyi olim, tashkilotchi, tajribali jamoatchi, dilingdagi fikrlarni bir zumda ilg'ab, maslahat berib, qalbingga yo'l topa oladigan nodir xislatlarga ega bo'lgan zukko sirdosh ustoz toifasiga kirardilar. Onaxon sifatida uch qiz, olti nevarani bag'rida kamol topdirdilar. Qizlari Ro'za, Rohatoy, Oygullar onlari kasbini egallab, obro'-e'tiborli muallima bo'lib ishlamoqdalar.

Tabarruk maskanning ilk qaldirg'ochlaridan biri bo'lgan Munavvara Salaevaning butun umri Xorazm Pedagogika instituti bilan bog'langan edi. Ular ayollarning oldingi safida turib, Moskvaga borib, rus tilida "Uyg'un lirikasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish baxtiga muyassar bo'lgan ustozdirlar.

U 1925-yilning 2-fevralida Xivada tug'ilgan. 30-yillardagi notinchlik ko'plar qatorida ular oilasini ham Turkmanistonning Toshhovuz shahriga ko'chib ketishiga sabab bo'lgan.

Bolalik va yoshlik yillari, O'rta va oliy ma'lumotga ega bo'lishi, hayotga ilk qadami o'sha shaharda kechgan.

Toshhovuzda ochilgan 2 yillik o'qituvchilar tayyorlash institutining ilk talabalaridan bo'lgan domla, muallimalik faoliyatini juda erta – 16 yoshdayoq boshladi. Bolalikdagi o'yinlarda "O'qituvchi" bolib, tengdoshlari va kichiklarning tinchini bermaydigan zukko "Qizcha muallim", rostakam o'qituvchi bo'lgan kunini shunday eslaydi: "Birinchi bor sinfga kirdim, bolalarning ko'zlari menga tikilgan: quvnoq, o'yinqaroq qora ko'zlar... hech qachon xotiradan ko'tarilmaydi. Shu ishonchni oqlay olarmikanman? Sertashvish onlar, kunduz bo'lalar orasida, kechalari mustaqil mutolaaga berilish... Hayotga qo'yilgan mustaqil qadam... Birinchi qadamni to'g'ri qo'yish juda muhim", deb eslaydilar yana ustoz o'z tarjimai hollarida [5].

1943-yildan to 1950-yillargacha o'zi bim olgan o'qituvchilar tayyorlash institutida faoliyat ko'rsatganlar. Shu fursatda Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika institutini sirdan bitkazdilar. Imtiyozli diplom olgani uchun aspiranturaga taklif etildi. Avval Toshkentda, so'ng Leningrad (hozirgi Sank-Peterburg), Moskva kabi shaharlarda o'qish baxtiga muyassar bo'ldi. 1954-yilda nomzodlik ishi nihoyasiga yetgach, Xorazm davlat pedagogika institutiga yo'llanma beriladi. Fan nomzodi bo'lgan birinchi ayol olim... endigina o'ttiz yoshga qadam qo'yayotgan yosh olimani ko'rishga shoshilganlarning adog'i yo'q edi.

1988-yilga qadar shu dargohda ilmiy va murabbiylik faoliyatini olib bordilar. U shogirdlarining kamolini ko'rib quvongan, yordam qo'llarini cho'zgan. Ularni sirdosh shogird sifatida e'zozladilar, munosib qadrladilar. Filologiya fanlari doktorlari professorlari – Hamdam Abdullayev, Sapparboy Ro'zimboyev, dotsentlar-B.Qurbonboyev, S.Navro'zov, jurnalistlar-Q.Matrizoyev, O.Pirmatov, R.Matkarimov, Q.Solayeva, oliy toifali o'qituvchilardan – Niyozjon Yo'ldosheva, O'g'iljon Sapayeva kabi ko'plab shogirdlari ustoz o'gitlarini o'zlariga dasturilamal qilib, qo'lidagi ilm mash'alasini yanada olovlantirib, shogirdlar tarbiyasida xizmat qilmoqdalar.

Xulosa.

O'z davrida ustozning mehnatlari munosib taqdirlangan edi. Bir necha "Fahriy yorliqlar", "Ittifoq xalq maorifi a'lochisi", "Ishdagi a'lo yutuqlari uchun", urush yillaridagi zahmatli mehnati, "G'alabani 40 yilligi" va "50 yilligi" ko'krak nishonlari, "Mehnatdagi alohida xizmatlari uchun" nishoni, 1985-yilda Qori Niyoziy nomidagi ko'krak nishoni bilan, 1994-yilda "Shuhrat" nishoni bilan taqdirlangan edilar. Mehnat faxriysi bo'lib, nafaqada o'tirgan chog'larida ham o'qish-o'rganishdan bir nafas to'xtamadilar, charchamadilar. Adabiyotning dolzarb masalalariga, mumtoz adabiyot namoyondalari va zamona shoirlarining ijodiga bag'ishlab, mahalliy va Respublika matbuotida ommabop maqolalar bilan qatnashdilar. Radio, Televideniya orqali qilgan ma'ruza va suhbatlari ko'plarning diqqatini o'ziga jalb qilib, eldoshlarimiz dilini va tafakkuriga munavvar hislarni olib kirdi.

Istiqlol sharofati bilan 1993-yilda "Navoiy va Xorazm shoirlari" risolasi chop etildi. Kitobda ulug' ajdodlarimiz – Ogahiy, Munis, Komil Xorazmiy, Avaz O'tarlar ijodini o'rta maktablarda o'rgatish masalalari tahlil etib berildi. Xalqimizning ko'p yillik orzu-armonlari ushalib, Xorazm maktablarida yondosh dastur asosida vohamiz qalam ahlining ijodi o'rganiladigan bo'ldi.

Domla she'riyat shaydosigina emas, yaxshigina she'rlar muallifi ham edilar. She'rlari, g'azallari muxlislar dilidan joy olgani haqiqat. Ustoz olimamiz barhayot va murabbiylar qatorida doimo yodimizda. Yozuvchilar, shoiru olimlar, donishmand qalb egalari, fidoyi insonlar, pokiza rahbarlar ikki bora umr ko'radilar. Birinchisi o'zi hayotligida, ikkinchisi insonlar uchun qoldirgan merosi – kitobu o'gitlarida, mehnat zafarlariyu shogirdlar xotirasida, farzandlar feliyu sulolasi bardavomligida. Domla ham fidoyi olima, jonkuyar murabbiy sifatida mangukka daxldor siymolar qatoridan o'rin oladilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Universitet faxriy professor –o'qituvchisi S.Masharipova suxbati. Urganch.20223. 10 yanvar.
2. S.Masharipova, T.Qalandarova. Qadriyatlar e'zozi.Toshkent.Istiqlol nuri. 2014.
3. S.Masharipova, T.Qalandarova. Qadriyatlar e'zozi.Toshkent.Istiqlol nuri. 2014.
4. Universitet faxriy professor –o'qituvchisi T.Qalandarova suxbati. Urganch. 2023. 10 yanvar.
- 5.UrDu “O'zbek filologiyasi va adabiyoti” kafedrası tarixi.

KISHILARNING MAROSIMIY HAYOTIDA NONNING O‘RNI (To‘y va aza marosimlari misolida)

Haqberdiyeva Flora

O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek nonlarining etno-madaniy xususiyatlarini marosimlar misolida etnografik dala materiallari asosida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. marosim, “beshik to‘yi”, sunnat to‘yi”, “ nikoh to‘yi”, “kumush to‘yi”, “oltin to‘yi”, “hovli to‘yi”, “uy to‘yi”.

Annotation. This article explains the ethnographic field material on the example of ethnographic field materials in this article.

Keywords. ceremony, «cradle wedding», «circumcision wedding», «marriage wedding», «silver wedding», «golden wedding», «courtyard wedding», «home wedding».

Аннотация. В данной статье поясняется этнографический полевой материал на примере этнографических полевых материалов данной статьи.

Ключевые слова. обряд, «колыбельная свадьба», «обрезанная свадьба», «брачная свадьба», «серебряная свадьба», «золотая свадьба», «дворовая свадьба», «домашняя свадьба».

KIRISH

Har bir xalqning boshqa bir xalqdan ajratib turuvchi muhim etnografik belgilaridan biri bu uning urf-odat va marosimlari hisoblanadi. Marosim-bu inson hayotida moddiy va ma'naviy ehtiyoj orqali yuzaga keladigan ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichidagi iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida nisbatan to'la mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. [1, B 9]

Demak, marosim xalq tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo'lgan hayotiy tadbir hisoblanadi. Milliy an'ana, urf-odat, rasm-rusm va marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Shunday omillarning eng muhimi – bu kishilarning turmush tarzi hisoblanadi. Fan olamida qabul qilingan o'ziga xos mezonlarga ko'ra, insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan tadbirlar oilaviy marosimlar va urf-odatlar deb yuritiladi. [2, B 73] Kishilarning hayot faoliyati bilan bog'liq an'analar ijtimoiy-siyosiy an'analarga qaraganda birmuncha mutassibroq va konservativroqdir. Tug'ilish, o'lim, hikoh bilan bog'liq bo'lgan marosimlar, kelib chiqish asoslariga ko'ra, qadimiy e'tiqod va diniy qarshalarga borib taqaladi. Mashhur ingliz faylasufi K. Dausonning ta'kidlashicha, qon-qarindoshlik, oila va nikoh bilan bog'liq marosimlar diniy kelib chiqish tarixiga ega. [3, B 74]

To'y bilan bog'liq an'ana, urf-odat va marosimlar shahar va qishloqda yashab kelayotgan, kishilarning kundalik hayot tarziga singib ketgan va ularning ezgu intilishlarini o'zida aks

ettiradi. Xalqimizning turmush tarzida “to‘y” nomi bilan amalga oshadigan yig‘inlari juda ham ko‘p. Bu yig‘inlar qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilar, tanish- bilishlar, yor-u do‘stlar, mahalla va xalq bilan birgalikda amalga oshadi va shunday davom etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

O‘zbek nonlari va ular bilan bog‘liq marosimlar zamonaviy etnologlar tomonidan dinamik tarzda tadqiq etib boriladi. An’anaviy etnografiyada, nonlar, qoidaga ko‘ra, doimo hududiy jihatdan, har bir hududning tabiiy iqlim sharoiti va yashash tarzining muhim komponenti sifatida o‘rganilib kelingan. Bu bilan avval ham etnograflar non bilan bog‘liq urf-odat va marosimlarni tadqiq qilishda tavsifiy yo‘nalish bilan cheklanib qolgan deb bo‘lmaydi. Masalan, G.G. Gromovning etnografiyaga oid risolasida taomlarning tarkibi va tayyorlanishiga tabiiy-geografik, xo‘jalik, tarixiy-madaniy va kundalik turmush tarzidagi odatiy omillar o‘z ta‘sirini ko‘rsatishi keltirib o‘tilgan. [4, B 82]

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida milliy qadriyat va an‘analarni yoritishga e‘tibor nihoyatda kuchaydi. Xususan, atoqli etnograf I.M. Jabborov o‘zbek xalqining milliy taomlari va pazandachiligiga ma‘naviy madaniyatning bir qismi sifatida qaraydi. [5, B 312] Bundan tashqari, o‘zbek xalqi an’anaviy marosimlariga bag‘ishlangan risola va monografiyalar ham muhim o‘rin tutadi. [6, B 140] Bu borada yana bir taniqli etnograf olim A. Ashirovning asarlari va ilmiy maqolalari diqqatga sazovor bo‘lib, unda non va uning turlari haqida ma‘lumot berilgan. [7, B 74]

Keyingi yillarda non bilan bog‘liq juda ko‘plab ilmiy maqolalar e‘lon qilingan bo‘lsa-da, lekin haligacha o‘zbek nonlarining turlari va u bilan bog‘liq urf-odat hamda marosimlar to‘liq tarzda tadqiq qilinmagan.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Beshik to‘yi” yurtimizning deyarli barcha viloyatlarida o‘tkaziladi. Toshkent shahri Bektimir tumanining ayrim joylarida qizning onasi bo‘g‘irsoq va kulcha nonlar tayyorlab, sarmo-surug‘lar bilan birgalikda qizining uyiga boradi. Buning sababi to‘yda o‘ynab yurgan bolalarga bo‘g‘irsoq va kulcha nonlar tarqatiladi. Bolaning umri uzoq bo‘lsin, shu bolalardek o‘ynab yursin degan maqsadda bu ishlar amalga oshiriladi. Shofirkon tumanining Yuqoriboloyrud qishlog‘ida ona qizining uyiga beshik olib kelganda unga ikkita non solib olib keladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloq nondek aziz bo‘lishi nazarda tutiladi. “Beshik to‘yi” ning yana bir qiziq tomoni, doyamomo ikkita nonni olib chetidan kichik bir tishlam tishlaydi va tishlangan bo‘lakni bolaning onasiga beradi va cheti tishlangan nonni bolalarga berishadi bolalar uni olib yugurishadi, ma‘lum vaqt o‘tganidan so‘ng kelishadi. Cheti tishlangan nonni esa o‘tirgan ayollarga bo‘lib berishadi. Bundan kutilgan maqsad bolaga risq- nasibasi butun baxti to‘kis bo‘lishini tilash. Yurtimizning barcha viloyatlarida sunnat to‘yi quyidagicha tartibda o‘tkazilgan: 1-maslahat oshi – kengash to‘yi; 2-tandir qurish; 3-nonvoy tushdi; 4-so‘qim so‘ydi; 5-non yedi; 6-hadmi xo‘ja o‘qitish; 7-katta to‘y.

Hayot Ismoilovning ta‘kidlashicha, “Sunnat to‘yi “shodiyonasidan oldin, tandir qurish jarayoni amalga oshirilgan bo‘lib, bundan ko‘zlangan maqsad, to‘y uchun sifatli va mazali nonlarni yopish bo‘lgan va tandirni mohir nonvoylar qurib o‘zlari non yopishgan.[8, B 476] Shu kuni uy egasi tandir qurgan nonvoylarga atab osh damlab ziyofat bergan. Non yopish vaqti

to‘ydan oldingi kunda bo‘lib, nonvoylar bir nechta qoplarni bo‘shatib xamir qorib, sifatli va chiroyli nonlarni yopishgan. Agarda to‘y qiladigan uy sohibining iqtisodi kamroq bo‘lsa, nonvoy chaqirmasa va tandir qurmasa, qo‘ni – qo‘shnilarning tandiriga, kayvoni ayollar yordamida non yopilgan. Har ikkita usulda ham nonni birinchi tandirga oqsoqollar yoki el kayvonilari urib berishgan. Bundan ko‘zlangan madsad, sunnat bo‘ladigan bola ham elning oldi insonidan bo‘lsin, va nonlar ham chiroyli chiqsin degan fikr bo‘lgan. Yopilgan nonlar alohida bo‘sh uyga yoyib qo‘yilgan va to‘y kunigacha ehtiyotlab saqlangan. Non yopiladigan kun to‘ychi kishining qarindosh-urug‘lari va yor-u do‘stlari ham kelishgan va nonlardan tanovull qilishgan.

“Non yedi”- qadimiy an‘analarga ko‘ra to‘yning birinchi kuni ertalab, odamlar to‘yga “non yedi”ga chaqiriladi, xususan Farg‘ona vodiysida ertalab, nonushtaga deb chaqirilgan va mehmonlar oldiga turli noz- ne‘matlar, issiq choy va tandirdan issiq uzilgan non qo‘yilgan va ketayotgan mehmonlarning qo‘liga ikkita, to‘rtta va ayrim joylarda to‘qqizta non berilgan. Shofirkon tumanining Yangiobod qishlog‘ida sunnat to‘yi kuni ertalab xalqqa osh berilgan, dasturxonga issiq non va choy tortilgan.[9] Dasturxonga nonlar juft qilib qo‘yilgan ayrim hollarda ikkita va to‘rttadan qilib qo‘yilgan. Shu qishloqda kayvonilik qilib kelayotgan Toirova Zubayda opaning aytishlaricha, betob bo‘lgan va yoshi ulug‘ kishilar to‘yga kelisha olmasa, tovoqqa qozondan issiq osh suzilib, ustiga ikki juft non va bo‘g‘irsoq qo‘yilib, ularning uylariga eltib berilgan.[10] Mahallada kam ta‘minlangan oilalarga ham dasturxonga non, bo‘g‘irsoq, shirinliklar tugilib, eltib berilgan.

Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ertalabki oshga ayollar ham borishadi. Ayollar ketishi oldidan ularning daturxoniga non, bo‘g‘irsoq, shirinliklar tugib beriladi. Ular dasturxondagi bu ne‘matlarni uylariga olib borishadi va farzandlariga bo‘lib berishadi. To‘yning bu ne‘matlari tabarruk deb bolajonlar uni iste‘mol qilishadi.

“Sunnat to‘yi” tugagandan so‘ng xatna qilish marosimi bo‘lib o‘tgan. Xatna qilish jarayonida bolaning yostig‘i ostiga ikki juft non qo‘yilgan buning o‘ziga xos sababi xatna qilinayotgan bolaga ins-jinslar yaqin kela olmaydi deb o‘ylangan. Axbarotchilarimizning aytishicha, xatna qilinayotgan bolaning onasi sinchalog‘ barmog‘ini unga, yana bir barmog‘ini yog‘ga botirib, o‘tirgan. Bundan ko‘zlangan maqsad xatna bo‘layotgan bolaning dardi va og‘riq kamayadi deb o‘ylashgan. Bundan tashqari xatna bo‘layotgan bolaning og‘ziga non tishlatilgan, Bola nonni tishlasa og‘riqni kamroq sezdi va nondek umrining aziz bo‘lishi nazarda tutilgan. Xatna qilgan ustani rozi qilib, ro‘molga ikkita non tugib beriladi. Xatna qilingandan keyingi kuni bolaning qo‘lini halollaganlari bilan qutlash maqsadida kirgan xotin- qizlar dasturxonga o‘rab non va patir olib kirishadi. Ularni kayvoni kutib olib, dasturxondan ikkitadan nonni olib o‘rniga “to‘yniki tabarruk” deb, bittadan non solib qo‘yadi. [11, B 75]“Nikoh to‘yi” xalqimiz orasida eng shodiyonali va eng qizg‘in tarzda o‘tkaziladigan marosim hisoblanadi. Har bir xonadonda qiz va yigit voyaga yetganidan so‘ng, uying yoshi ulug‘lari ularning “boshlarini ikkita qilish”ga harakat qila boshlaydilar. O‘g‘illariga mos qiz axtara boshlaydilar. Axbarotchilarning aytishicha, qiz ko‘rishga yoshi ulug‘ onaxonlarimiz borishadi va qiz o‘sgan uying saramjon-sarishtaligiga, o‘choq boshining toza tutimiga, tandirda yopilgan nonning sifatiga e‘tibor berishadi.[12] Nikoh to‘yi tantanalarini boshlab beruvchi dastlabki marosim sovchilik bo‘lib, u

to'g'risidagi ilk ma'lumotlar VII- VIII asrlarga oid O'rxun –Enasoy bitiklarida uchraydi.[13, B 89]

Bundan ko'rinib turibdiki, yuqoridagilarning barchasi bo'lsa, bu xonadonda o'sgan qiz yaxshi ro'zg'or qila oladi deb o'ylashadi. O'zbek xalqining go'zal urf-odatlaridan yana biri bu qizning uyiga sovchilikka borish hisoblanadi. Sovchilar el orasida obro'- et'tiborli, oqil-u fozil, nutqi ravon kishilardan tanlangan. Chunki ularning vazifasi ma'sulyatli hisoblanadi. Shofirkon tumanida sovchilikka ikki erkak va ikki ayol boradi. Ayrim hollarda esa bir erkak va bir ayol boradi. Qadimda sovchilikka yigitning ota-onasi bormagan. Axbarotchilarimizning aytishlaricha, hozirgi kunda uylanmoqchi bo'lgan yigitning ota-onasi ham bormoqda. [14] Sovchilikka borish jarayonida dasturxoniga ikki juft yoki to'rt juft qilib non yoki patir va oq shirinlik qo'yib boriladi. Buning sababi oila qurmoqchi bo'lgan yoshlar jufti bilan bir umrga birga bo'lsin, risqli- nasibali bo'lsin, hayotlari shirin bo'lsin degan maqsadda shunday qilib olib boriladi. Agar qizning uyidagilari rozi bo'lishsa, oq shirinlik va nonni o'zlarida olib qolishadi.[15] Bu qizimizni sizlarga beramiz degani va rozilik alomati hisoblanadi. Taomilga ko'ra kelgan sovchilarga oq ro'molga tugilgan non va ikkita qatlama, bir ro'molcha berilgan va sovchi ushbu tugunchani kuyovnin onasiga olib borib bergan.[16, B 103] Kuyovning onasi esa tugunchadagi ikkita qatlamani sindirib, shu yerda to'plangan kishilarning hammasiga ulashib chiqadi va "Sizlar ham to'y ko'ringlar" deb tilak bildiradi. Kuyov tomon esa bu belgiga qarab to'y harakatlarini boshlab yuborishadi. Shofirkon tumanining Yuqoriboloyrud qishlog'ida fotiha marosimida kuyov tomonidan olib kelingan patir juftlab yoshi ulug' otaxon tomonidan sindiriladi.[17] Yoshlar qo'sha qarsin, rizqli –nasibali bo'lsin, bir- biriga aziz bo'sin deb niyatlar qilinadi. Bu marosim "Non sindirish" deb atalgan. Sindirilgan non bo'laklari bu marosimda ishtirok etayotgan barchaga tarqatiladi. Sizlarni ham to'yga yetkazsin degan maqsadda. Shofirkon tumanida fotihaga patir bilan birgalikda "bozor kulcha" deb atalgan shirmoy non va holvallar etiladi. Bularning barchasi fotiha marosimidan so'ng kelgan mehmonlarga tarqatib beriladi. Taomilga ko'ra, kuyovning ota-onasiga oq belbog'qa ikkita non tugib, beriladi. Bu qizning kuyovga fotiha qilinganligini bildiradi. Bu "oqliq berish" deb aytiladi. Olib kelingan belbog' ichidagi non kuyov tomonning qarindosh –urug'lariga sindirilib beriladi. Bu fotiha qilinganlikni belgisi hisoblanadi. Shofirkon tumanida fotiha marosimidan keyin, "shayton qochdi" marosimi bo'lib o'tadi. Bunda kuyov tomondan kelinning uyiga sakkizta patir, sakkizta non, sakkizta qatlama, sakkizta bozor kulcha, holva va matolar olib boriladi. Nonlarning juft olib kelinishi, kelin va kuyovning bir umr juft bo'lib yashashi nazarda tutiladi. Shu kuni olib kelingan matolarga qaychi uriladi. Bu "bichon" deb aytiladi. Shundan keyin bo'lajak kelin matolarni tikuvchiga berishi mumkin. Bu marosimlar tugagandan so'ng kuyovning dasturxoniga ham juft qilib keltirilgan narsalar qaytariladi. Kuyovning uyiga ham juft bo'lib, kirib borsin degan maqsadda amalga oshiriladi. Yoshi ulug' insonlarimizning so'zlariga ko'ra, Shofirkon tumanida nikoh o'qilayotgan paytda oq dasturxon yoziladi va unga suv, oq qand va non qo'yiladi. Yoshlarning umri suvdek sof va tiniq, oq qanddek shirin, nondek aziz bo'lishi uchun shunday qilinadi. Nikoh o'qib tugatilgach, suv kelin va kuyov tomonidan ichiladi va guvohlarga ham uzatiladi. Non ham sindirilib o'tirganlarga beriladi. Kuyov tomonidan kelinning uyiga bo'sh sandiq olib kelinadi. Uning ichiga ikkita non va bir juft oyoq kiyim solib kelinadi.[18]

Kelin bo‘lmish qiz nondek aziz bo‘lsin va yelib- yugurib xizmatda bo‘lsin, degan niyatda shunday qilinadi. Etnograf olim A.Ashirovning yozishicha, imom tomonidan nikoh o‘qib, bo‘lingandan so‘ng, kelin –kuyovning ustidan bug‘doy donlari “Avlodlari donday ko‘paysin” degan maqsadda sochib yuborilgan. [19, B 98] Axborotchilarimizning aytilishlaricha, to‘ydan oldin kelinga deb tikilgan ko‘rpachalarni yig‘ish marosimi bo‘lib, “raxt urdi” deb aytiladi. Bunda ko‘rpachalar orasiga ikki juft non qo‘yiladi. Yoshlar bir umr risqli- nasibali va bir – biriga aziz bo‘lsin degan maqsadda. [20]

To‘y kuni kelinni kuzatish marosimi bo‘ladi. Kelin uying ostonasida otasining tizzasiga bosh qo‘yib “Bergan non, tuziga rozilig so‘raydi”. Ota ham qizidan rozi ekanligini bildiradi. Qiz ota uyidan kuyovning uyiga ketish oldidan qizning qo‘ltiq ostiga ikkita non qistiradilar va bir tovoqda un solib kuzatadilar. [21] Nondek rizqi ulug‘ bo‘lishi, undek hayoti pokiza va toza bo‘lishini va kelinning mo‘l-ko‘lchilikda ro‘zg‘or tutishini nazarda tutiladi. Xursandchilik kunida bularning barchasi ehson tarzida tarqatilgan va bolani yomon ins- jinslardan bartaraf etadi degan tasavvur bo‘lgan.

M.Fayzullayevaning aytilishicha, turmushga chiqayotgan kelinning beliga xamirturushdan bir parcha bog‘lab kuyovning uyiga “xamirday yetilib, o‘zingdan ko‘paygin”- deb, jo‘natishgan. [22, B 46]

Shofirkon tumanida kuyov kelinni olib ketish uchun olov yoqib kelgan. Bu “jar” deb ataladi. Shuni qizning uyidagi tandirga olib borib solishgan va bir kishi olov o‘chib bo‘lgunicha uni qo‘riqlab turgan. [23] Agar qo‘riqlanmasa kimdir unga suv sepsa, yoshlarning hayoti buziladi degan tasavvur mavjud. Tandirga solinishining sababi tandirda aziz ne‘matimiz non yopiladi va tandir quyoshdek issiq yoshlar ham bir biriga aziz va mehribon bo‘lsin degan maqsadda shunday qilinadi. O‘zbeklarda nikoh to‘yidan keyin, “bet ochar” marosimida “supra soldi” odati bajarilgan. [24, B 100] Qaynona kelinning qo‘liga bir hovuch un olib, to‘kadi va bu harakat uch marotaba qaytariladi. Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida ham bu odat to‘ydan keying kun amalga oshiriladi. Kelin o‘zi bilan olib kelgan undan xamir qorib birorta tansiqroq xamirli taom pishirib beradi. [25] Axborotchilarimizning aytilishiga qaraganda yangi tushgan kelinni qo‘lini unga botirishgan. [26] Hayot yo‘li oppoq bo‘lsin degan maqsadda. Shofirkon tumanida kelin kuyovning uyiga kelgandan so‘ng, chimildiqqa solish marosimi bo‘ladi shunda qaynona kelinga o‘tiring uy sizniki butun ro‘zg‘orim jamlangan surpamni berdim deydi. [27]

To‘ydan so‘ng o‘tkaziladigan “kuyov chaqirdi” marosimida kelinning ota hovlisidan xamirturush, yog‘, tuz va turli tuman ro‘zg‘or buyumlari yuborilgan bo‘lib, kelinning non-tuzi endi kuyovning xonadoniga qo‘shilsin degan marosimda ifodalangan.[28, B 211] Axborotchilarimizning aytilishicha Shofirkonda o‘tkaziladigan to‘y marosimida chimildiqda tuxumni birorta idishga emas elakka solib olib kelishadi.[29] Shofirkon tumanida ayollar to‘yga kelishlarida tandirda patir yopib ikki juft qilib, dasturxonga shirinlik va mato bilan olib kelishadi. [30] Dasturxonchi ayol shirinlikni, matoni va bitta patirni olib, bitta patirni qoldirib, uning ustiga shirinlik solib dasturxonni tugib qo‘yadi. Inson dunyoga kelishi bilan birga uning ketishi ham bor, ya‘ni har narsaning boshi va oxiri bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan non o'zbeklarning to'y marosimlarida eng tansiq va quvvat beruvchi taom tarzida, shuningdek, eng muqaddas va ilohiy ne'mat sifatida ham e'zozlanganini kuzatish mumkin. Qolaversa, mahalliy xalq orasida non turli balo-qazolarni, yomonliklarning oldini oluvchi magik qudratga ega deyilgan hamda bu bilan bog'liq qator rasm-rusumlar va urf-odatlar bajarilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan" nashriyoti, 1986.
2. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Громов Г.Г. Методика этнографических экспедиций. – Москва, 1966.
5. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.
6. Ismoilov H. O'zbek to'ylari. – Toshkent, 1994.
7. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. Toshkent, 2007.
8. Ismoilov H. O'zbek to'ylari. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
9. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yangiobod qishlog'i. 2022.
10. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yangiobod qishlog'i. 2022.
11. Ismoilov H. O'zbek to'ylari. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
12. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yangiobod qishlog'i. 2022.
13. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
14. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yangiobod qishlog'i. 2022.
15. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yangiobod qishlog'i. 2022.
16. Ismoilov H. O'zbek to'ylari. – Toshkent: O'zbekiston, 1992.
17. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yuqoriboloyrud qishlog'i. 2022.
18. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yuqoriboloyrud qishlog'i. 2022.
19. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
20. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yuqoriboloyrud qishlog'i. 2022.
21. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yuqoriboloyrud qishlog'i. 2022.
22. M. Fayzullayeva Surxon vohasi aholisining taomlar bilan bog'liq an'ana va marosimlari....46 bet.
23. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yuqoriboloyrud qishlog'i. 2022.
24. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
25. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
26. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yuqoriboloyrud qishlog'i. 2022.
27. Dala yozuvlari. Toshkent shahri Bektemir tumani Chinor mahallasi. 2022.
28. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yuqoriboloyrud qishlog'i. 2022.
29. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
29. Dala yozuvlari. Buxoro

viloyati Shofirkon tumani Nekkishi qishlog‘i. 2022.

30. Dala yozuvlari. Buxoro viloyati Shofirkon tumani Yuqoriboloyrud qishlog‘i. 2022.

THE ROLE OF PROJECT MANAGEMENT IN THE FIELD OF CULTURE AND ARTS

Sh. K. O‘rinov,

BuxDU Department of Music Performance and teacher of the department of culture

Sh. Nematulloeva

Student of the Faculty of Arts of BuxDU

Annotation: In the article, today's important topics in the field of culture and art were written, and as a result of study and research, a number of solutions were given to the problems. The concepts of project management and project manager were also explained.

Keywords: project management, project manager, evaluation, planning, benefits of project management

The relevance of the subject of project management in the field of culture and art, the increased interest in the spiritual factors of the development of modern life, the influence of the creative heritage on the national heritage of the society, and the socio-economic changes in the policy of Uzbekistan are explained. Over the past decades, many cultural projects have been implemented in our country, and experts have rightly assessed the project approach to the development of culture and the possibility of realizing its potential. Today, intensive work is being done to fully cover cultural needs, provide cultural services to the population, and create cultural literacy among the masses.

Unfortunately, from today's point of view, the project base in this field is very weak, and at the same time, the level of research in this field is still weak, because it is not enough researched and there are few academic works to train project managers. In the field of project management (hereinafter referred to as project management), we take foreign experiences, then form a certain management system and implement projects with significant economic potential based on foreign experience, and use our experiences we should organize it in harmony with our mentality and outlook, political processes. Today, in our country, project management based on mutual cooperation with state, commercial and non-commercial organizations, there are conditions that ensure the attraction of additional resources in the field of cultural management. As a result, it will have a positive effect on the creation of a civilized market of cultural goods and services for the population in Uzbekistan. was used in the field of production, and when management principles and laws began to be applied to other areas of human activity, to distinguish this concept. The term «arts management» was introduced. By this term we mean the non-industrial service sector «Arts and Culture». If we dwell on the explanation of the words, «Project» is a list, statute, rule, plan, program. It was the initial rough text of the decision, decree, law and similar documents, and today this phrase is rapidly entering various directions. No matter what field you look at, this word is highly relevant and important, including in the field of culture and art.

As for the word management, management (ing) «management, planning, regulation, control» as well as directing production, organizing it; management science. This phrase is also important for the implementation of cultural policy in our country. Project management includes planning the allocation of resources and managing the team to achieve predetermined goals.

Project management is a transferable skill and useful in many fields, from academic research to business planning. It also helps improve the skills of employees, as it helps them develop important skills such as the use of project management software and teamwork. Another source gives the following explanation: according to the definition of the project by the US Institute of Project Management, «a project is an idea that represents a specific task with certain preliminary data and the necessary results (goals) that determine the method of solving it, the means of its implementation and should contain the result to be obtained».

In the book «Culture: Management, Animation, Marketing» by Milena Dragisevich-Šesicva Branimir Stojkovic, as a continuation of this definition, a definition is given: «project» is an idea implemented in a process that produces certain results.

There are four important stages in the complete project cycle:

- An idea or concept;
- Planning and execution;
- Make it happen;
- Finish.

A project manager is a person responsible for a specific project, who performs tasks such as organizing, leading and supervising activities in the field of culture and arts. It has the following obligations:

- Gathering a group of people to organize a project
- Dividing the project into tasks;
- Allocating tasks to team members based on their strengths;
- Organizing meetings and meetings to discuss the project;

Such as ensuring the completion of tasks within the specified period. Today, the organization of holiday events and cultural events is considered a very serious and complex task. Because all these events are brought to the attention of the public, very serious preparation and great skill are required, and they must be free of any flaws. At the same time, the artistic director is responsible for the organization of holiday events, and the organizer of the event is chosen collectively, unfortunately, the lack of such a position is one of the sore points in cultural activity. When the events are organized, leadership, organization and control of them are collective, and the responsibility of this event is assigned to many people, but the process shows that this does not give full results. Therefore, by introducing the position of event organizer, we have solved a number of problems in the field. Through this, we aim to create an opportunity for creative activities in a way that does not distract from their functional tasks, without harming the freedom of creative people, while saving time and money. It is easy to achieve the intended results by implementing the position of an event organizer that is scientifically based and can give its results in the future events, by contributing to the development of the industry, as well as by conducting effective activities. The aim is to create an opportunity for creative activities without

disturbing the freedom of creative people without distracting them from their functional tasks. It is easy to achieve the intended results by implementing the position of an event organizer that is scientifically based and can give its results in the future events, by contributing to the development of the industry, as well as by conducting effective activities. The aim is to create an opportunity for creative activities without disturbing the freedom of creative people without distracting them from their functional tasks. It is easy to achieve the intended results by implementing the position of an event organizer that is scientifically based and can give its results in the future events, by contributing to the development of the industry, as well as by conducting effective activities.

By means of the above, the extent to which the activity we are organizing is correct and the duration of its achievement of the intended goal, as well as the existing conditions for its organization, are studied and monitored. Through this, we can witness how important the projects are not only in the political but also in the cultural sphere. Currently, a number of rapid reforms are being carried out in the field of culture and art, yesterday the Ministries of Culture and Tourism were merged based on the decrees issued by the President of our country, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. In this way, to further develop the cultural policy of our country, to have a positive effect on the country's economy by increasing the flow of tourists, and to carry out a unified cultural policy by uniting sectors,

My proposal, based on experience and knowledge, it can be said that project management, no matter what field of activity it is, serves as a lever that develops that field, including in the field of culture. Simply, when creating a project, it is appropriate to be based on certain conditions, available resources, opportunities, knowledge and experience. Knowledge and experience are the result of many studies and researches, so it is related to this activity that is important today. If foreign works are translated into Uzbek and re-studied in educational institutions and a manual is created, not only will our scientific potential increase, but we will revise our thoughts and opinions and adjust them to the requirements of the time, and when our young people go abroad to gain experience, they will have acquired certain skills in this field,

REFERENCE

1. Urinov SK, Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. - 2022. - T. 3. – no. 4. – S. 370-376.
2. Orinov SK, Kadirova V. THE ROLE OF «AVESTO» IN THE STUDY OF INTANGIBLE-CULTURAL HERITAGE // ONLINE SCIENTIFIC JOURNAL OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ANALYSIS. - 2022. - S. 83-86.
3. Orinov SK, Bobokulova S. THE SIGNIFICANCE OF CULTURE AND ART MANAGEMENT TODAY // ONLINE SCIENTIFIC JOURNAL OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ANALYSIS. - 2022. - S. 78-82.
4. Orinov SK et al. CULTURAL CENTERS AS AN OBJECT THAT FORMES THE CREATIVE ABILITY OF THE POPULATION //ONLINE SCIENTIFIC JOURNAL OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ANALYSIS. - 2022. - S. 68-72.

5. Orinov SK, Abdusalomova H. ISSUES OF THEATERS' ACTIVITY DEVELOPMENT //SCIENTIFIC JOURNAL OF SUSTAINABILITY AND LEADING RESEARCH ONLINE. - 2022. - S. 766-770.
6. Orinov SK et al. DIFFERENTIAL APPROACH TO DIFFERENT STREETS OF THE POPULATION IN THE ACTIVITY OF CULTURAL CENTERS // ONLINE SCIENTIFIC JOURNAL OF EDUCATION AND DEVELOPMENT ANALYSIS. - 2022. - S. 73-77.
7. BUKINA DM, CULTURAL ACTIVITY. TEXTBOOK, //M., 2016, 320B.
8. ZAREV VA, PROJECT MANAGEMENT: TEXTBOOK MOSCOW: DIA, 2014, 321B.
9. MATYUSHOK VM, BURCHAKOVA MA, SMARJEVSKY IA, YAKUBOVA TN, LAZANYUK IV, SORIKIN LV, MATYUSHOK SV PROJECT MANAGEMENT. M-RUDN, 2010, TEXTBOOK, 553B.
10. DRIVER. CULTURE IS THE FOUNDATION OF NATIONAL GROWTH. - TASHKENT, OLTINMEROS PRESS, 2021.-480B.

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASINI BOSHQARISHDAGI MAQSADLI DASTURIY USULLAR

Sh.K.O'rinov

BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

G.Sunnatullayeva

BuxDU San'atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada madaniyat va san'at sohasi boshqaruvining maqsadli dasturiy usuli, Art-menejer kasbining xususiyatlari va xorijiy soha mutaxassislarining fikrlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Art-menejer, maqsadli dasturiy usul, menejment.

Аннотация: В статье говорится о целенаправленном программном методе управления сферой культуры и искусства, особенностях профессии арт-менеджера, мнениях зарубежных специалистов.

Ключевые слова: Арт-менеджер, метод целевого программирования, менеджмент.

Annotation: The article talks about the purposeful programmatic method of management of the culture and art sphere, the features of the art-manager profession, and the opinions of foreign specialists.

Keywords: Art manager, targeted programming method, management.

Mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan barcha sohada amalga oshirilayotgan maqsadli dasturiy loyihalar, istiqbolli rejalar asosida bajarilayotgan ishlar xalqimizning turmush tarzini, nafaqat turmush tarzi, balki uning dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirmoqda. Barchamiz bunday o'zgarishlar jarayonida erkin kuzatuvchi bo'lib qolmay, balki ularning ishtirokchilariga aylanishimiz darkor.

Bugungi kunda madaniyat va san'at sohasiga oid 130 dan ortiq huquqiy hujjatlar qabul qilinyapti. Hech shubhasiz, ularning zamirida sohani rivojlantirish, sohaga oid qator kamchiliklar, yo'l qo'yilayotgan xatolarni bartaraf etish va ularning oldini olish yotadi. Umuman olganda madaniyat sohasida maqsadli dasturiy usullarni ishlab chiqish orqali sohani rivojlantirish har tomonlama foydali. Shu o'rinda maqsadli dasturiy usul nima ekanligini bilib olsak. Maqsadli dasturiy usul ko'plab rivojlangan mamlakatlarda qo'llaniladigan iqtisodiy rivojlanishning fazoviy jihatlarini davlat-monopolistik tartibga solishning eng keng tarqalgan va samarali usullaridan biridir. Ushbu usul iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga asoslangan va ularga erishish va resurslar bilan ta'minlanishning samarali usullari va vositalarini aniqlashda yakuniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda reja ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Demak, maqsadli dasturiy usul barcha sohalarda qo'llaniladigan, yakuni ijobiy natija bilan tugaydigan usullardan biri ekan. Madaniyat sohasida ham bunday usuldan foydalanishni davlatimiz rahbari tomonidan 2018-yil 28-noyabrda qabul qilingan O'zbekistonda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish

konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4038 qarorida ham ko'rishimiz mumkin. Qaror asosida 2019-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar dasturi, 2019-2022 yillarda yangi quriladigan, rekonstruksiya qilinadigan, kapital ta'mirlanadigan va to'liq jihozlanadigan madaniyat markazlarining manzilli ro'yxati ham tasdiqlandi. Shu yillar davomida bajarilgan ishlar yil yakunida sarhisob qilingan. Biz bu yerda ma'lum maqsad uchun qabul qilingan bir necha yil davomida bosqichma-bosqich bajariladigan ishlar majmuyini ko'rishimiz mumkin. Xuddi shu yo'sinda madaniyat sohasinigina emas, balki O'zbekistonimizni rivojlantirishga oid harakatlar strategiyasini ham misol qilishimiz mumkin. Bu ham maqsadli dasturiy usul asosida yaratilgan deb o'ylayman.

Tashkilot, korxonalar, muassasalar rivojlanishi uchun ham maqsadli dasturiy usuldan foydalanish mumkin. Xo'sh, tashkilot, korxonalar va muassasalarda buni ishlab chiqadigan shaxs kim?

Albatta Menejerlar hisoblanadi. Ular tashkilotni rivojlantirish maqsadida bir yillik yoki ko'p yillik maxsus dasturiy usulni ishlab chiqadilar va uni rahbarga topshiradilar. Rahbar esa uni ko'rib chiqib o'z xulosasini aytadi. Ko'plab tashkilotlar bir yilga mo'ljallangan maqsadli dasturiy usulni ma'qul ko'rishadi.

Endi madaniyat muassasalariga keladigan bo'lsak, bu yerda maqsadli dasturiy usulni Art-menejerlar ishlab chiqadi. Art-menejer o'z nomidan ham ko'rinib turibdiki, ular san'at sohasida boshqaruvni o'z qo'llariga oladilar. San'at menejerlari turli loyiharni ilhomlantiruvchi, ularni tashkil etuvchi, barchaga yetkazuvchi va konsepsiyalarni ishlab chiquvchi shaxslar bo'ladi. Art-menejerlar ham boshqa soha menejerlari singari doimiy ravishda san'at bozorini kuzatib borishlari lozim. Agarda art-menejer o'z kasbini tushunmasa, to'g'ri idrok eta olmasa, u bu kasbda uzoq ishlay olmaydi.

Art-menejerlarning asosiy vazifalaridan bir nechtasini ko'rib chiqamiz:

- Mijozlar, ya'ni ijrochilar jamoasi bilan muloqot qilish;
- loyihalarni barchaga yoqishini, ya'ni ularning ommabopligini ta'minlash;
- turli darajadagi badiiy tadbirlarni tashkil etish.

Art menejment atamasi (ingliz tilidan art – san'at va boshqaruv - boshqaruv, tashkilot) madaniyat va san'at sohasidagi boshqaruv jarayonlari, badiiy amaliyotning rivojlanishi va o'zgarishi bilan bevosita bog'liq.

San'at menejmenti atamasining chegaralari, ko'lami va mazmunini to'g'ri aniqlash uchun uni madaniyat va san'at, ijtimoiy-madaniy menejment sohasidagi menejment atamalari bilan o'zaro bog'lash zarur. Maxsus adabiyotlarda ushbu toifalarning bir nechta ta'riflari mavjud bo'lib, ularning har biri ushbu konsepsiyaning u yoki bu tomonini ta'kidlaydi. M. P. Pereverzev, T. V. Kostsovlar quyidagi ta'rifni beradilar: "Madaniyat va san'at sohasidagi menejment – bu alohida yuksak intellektual shaxsning murakkab maqsadli intellektual va iqtisodiy faoliyati yoki omillardan samarali foydalanish maqsadida bir yoki bir nechta shunday shaxslar atrofida yaratilgan tashkiliy tizim.

Rossiyada davlat boshqaruvi ensiklopediyasining mualliflar jamoasi ilmiy muomalaga quyidagi tushunchalarni kiritadi:

-madaniyat sohasidagi menejment muayyan ijtimoiy-madaniy vaziyatga mos ravishda turli ijtimoiy-madaniy muassasalarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini ta'minlovchi boshqaruv faoliyati tizimi sifatida;

-ijtimoiy-madaniy menejment madaniyatning resurs salohiyatidan foydalanish texnologiyasi, inson faoliyatining ko'plab sohalarini tashkiliy va boshqaruv amaliyotida jamiyat rivojlanishining tizim yaratuvchi omili sifatida.

San'at menejmenti atamasi ushbu hodisaning xususiyatlarini ochib beradigan va uning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, funksiyalari va mexanizmlarini yaxlit ko'rishga imkon beruvchi bir qator tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

-ichki va tashqi muhitni tahlil qilish - manfaatdor tomonlar va ularning o'zgaruvchan manfaatlari, ehtiyojlari va kutishlari bilan bog'liq risklarni aniqlash, baholash va boshqarish bo'yicha muassasa faoliyati amalga oshiradigan sharoitlarni monitoring qilish;

-missiya va qarash - falsafaning ifodasi va madaniyat va san'at institutining ijtimoiy-madaniy maqsadining asosiy asosiy tamoyillarining mavjudligi, targ'iboti va pozitsiyasi;

-maqsadni belgilash va rejalashtirish - ta'lim, madaniyat, san'at va bo'sh vaqtni o'tkazish sohasidagi yosh avlodning hayotiy huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun jamiyat ehtiyojlarini yetarli darajada aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy va badiiy tadbirlarni ishlab chiqish va uning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar;

-boshqaruv sub'ekti - muassasaning muayyan sohalarida boshqaruv qarorlarini qabul qilish sohasidagi vakolatlarni amalga oshirish funksiyasiga ega bo'lgan badiiy menejerlar;

-boshqaruv ob'ekti - qo'yilgan maqsadlarga samarali erishish uchun boshqaruv sub'ekti tomonidan boshqaruv ta'siriga yo'naltirilgan turli maqsadlardagi (bo'limlar, sektorlar va boshqalar) o'zaro bog'langan tarkibiy bo'linmalar yig'indisi;

-boshqaruv tizimi - boshqaruvning maqsad, vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish, madaniyat va san'at sohasida boshqaruv qarorlarini tayyorlash va amalga oshirish jarayonini ta'minlovchi mexanizmlar majmui;

-art marketing - badiiy boshqaruvning o'ziga xos funksiyasi, mahsulot (mahsulot yoki xizmat) va ijtimoiy-madaniy mahsulotni yaratish, yetkazib berish va iste'mol qilish bilan bog'liq bir qator omillar orqali iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan harakatlar majmui.

Badiiy menejmentning asosiy tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har birining afzalliklari va xususiyatlaridan kompleks foydalanishga asoslangan yagona jarayonning tarkibiy qismlari sifatida amalga oshiriladi. San'at sohasidagi zamonaviy boshqaruv amaliyotini tizimli tahlil qilishdan foydalanib, badiiy menejmentning asosiy turlarini aniqlash va ularni tizimli ravishda taqdim etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M.. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.

2. Mirziyoyev Sh. M.. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017.
3. Bekmurodov M.. Tashkilot madaniyati va rahbar ma'naviyati.– Toshkent, 2001
4. Yo‘ldashev N, Qozoqov.O.. Menejment. Darslik. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Ravshanov F.. Rahbar va rahbarshunoslik.T.: «Akademiya», 2009.
6. Тульчинский Г.Л,Шекова Й.Л. Менеджмент в сфере культуры.– СПб., 2007.
7. Xaydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. - Toshkent: G'.G'ulom, 2016.
8. Urinov S. K., Rakhmatova M.. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 370-376.
9. Orinov S. K., Qodirova V.. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O'RGANISHDA “AVESTO”NING O'RNI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 83-86.
10. Orinov S. K., Boboqulova S.. MADANIYAT VA SAN'AT BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 78-82.
11. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 68-72.
12. Orinov S. K., Abdusalomova H. TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 766-770.
13. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUV //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 73-77.
14. “XALQ SO‘ZI” GAZETASI, 2018-YIL 10-DEKABR.
15. ПРОФГИД ПРОФОРИЕНТАЦИЯ САЙТИ

MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDA MEHNATGA HAQ TO'LASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Sh. K. O'rinov

BuxDU Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrası o'qituvchisi

S. Sadullayeva

BuxDU San'atshunoslik fakulteti talabasi

Anotatsiya: Mazkur maqolada madaniyat va san'at sohasida xodimlarning ish haqlari to'lanadigan miqdor hamda moliyalashtirish manbalari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, madaniyat sohasini davlat siyosati darajasida rivojlantirish haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: PhD, ish haqi, mezon, koeffitsiyent,

Аннотация: В данной статье говорится о размере заработной платы, выплачиваемой работникам сферы культуры и искусства и источниках финансирования. Обсуждается также развитие сферы культуры на уровне государственной политики.

Ключевые слова: Кандидат наук, Зарплата, Критерии, Коэффициент,

Annotation: This article talks about the amount of wages paid to employees in the field of culture and art and the sources of funding. The development of the cultural sector at the level of state policy is also discussed.

Keywords: PhD, Salary, Criteria, Coefficient,

Mustaqillik yillarida har jabhada ilg'orlik kuzatilgani kabi, madaniyat va san'at sohasida ham keng qamrovli burilishlar yuzaga keldi. Xususan, davlatimiz rahbari tomonidan soha kamoloti yo'lida 40 dan oshiq farmon va qarorlar qabul qilindi hamda qarorlar ijrosi ta'minlanishi mas'ul xodimlar tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Ayonki, madaniyat va san'at sohasi vakillari aholining madaniy hordiq chiqarishi, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, bo'sh vaqtlarining mazmunli o'tishini ta'minlash, hududlarda istiqomat qiladigan fuqarolarga madaniy dam olish xizmatlari ko'rsatish darajasini oshirish, respublikaning barcha hududlarida teatr, sirk va boshqa turdagi ommaviy-madaniy va konsert-tomosha tadbirlarini tizimli ravishda yo'lga qo'yish, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ommaviy bayram, tomosha va xalq sayillarini tashkillashtirish kabi bir qator vazifalar ijrosi ta'minlovchilari hisoblanadi. Biroq, mas'uliyat darajasi yuqori bo'lgan kasb egalariga bugungi kundagi "pastnazarlik" kelajak avlod uchun o'z tarix va madaniyatini anglashga, qadriyatlar kesimini unutishga, an'analarning tobora unut bo'lishiga olib kelishi naqadar haqiqatli, achinarli holat, albatta. Xo'sh, bu kabi qarashlar ildiz otishiga nima sabab bo'lgan? So'zsiz, birinchi navbatda, 74 yil davom etgan sho'rolar asorati milliy madaniyatimizning sindirilishi, buyuk tariximiz unutilishi yo'lidagi johilliklar, xalqimiz ongidan majburan sharqona qarash, fikrlash, hamda umumbashariy qadriyatlarning yo'q qilinishi yo'lidagi qonli to'qnashuvlar tarix zarvaraqlaridan ma'lum. Ammo istiqolol yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish

yo'lida tarixiy ishlar amalga oshirildi, mard va olijanob xalqimizning bukilmaz irodasi va ulkan salohiyati bilan katta marralar zabt etildi. Qadimiy tariximiz, boy madaniy merosimiz, milliy-diniy qadriyatlarimiz, o'zligimiz tiklandi. Mustaqil taraqqiyot borasida erishgan ulkan yutuqlar bilan birga, yo'limiz ayrim xato va kamchiliklardan ham holi bo'lmaganini ochiq aytish lozim. Mustabid tuzumdan voz kechib, demokratik jamiyat barpo etishga qaratilgan jarayonlar, murakkab va tahlikali davrning o'zi turli muammo va vazifalarni oldimizga ko'ndalang qo'ydi. Ularni muvaffaqiyatli hal etish uchun bilim va tajribamiz, iroda va qat'iyatimiz ba'zan yetsa, ba'zida yetmagan holatlar ham bo'ldi. Shu bois mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish obyektiv zarurat, eng muhim strategik vazifaga aylandi. Ayni o'rinda madaniyat va san'at xodimlarining o'rni bo'lakcha. Sababi, inson qalbiga olijanob fazilatlar, ezgu his-tuyg'ularni singdirib, jamiyatni birlashtirish va taraqqiy ettirish, xalqni, Vatanni dunyoga tarannum etishda madaniyat va san'atning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyov 2017-yil madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan uchrashuvda shunday ta'kidlagan edi: "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim".

Darhaqiqat, insoniyat ma'naviyati va tafakkuri rivojlanishi madaniyat va san'atsiz kechmaydi. Mamlakatimizda ham bu soha turli sabablar bilan yuksalish va deppinish davrini boshidan o'tkazib keldi. Lekin so'nggi yillarda mazkur sohalarni rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarish yuzasidan hukumatimiz tomonidan tub o'zgarishlar, islohotlar olib borilmoqda. Soha xodimlarining mashaqqatli mehnatini har tomonlama rag'batlantirish, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish borasida ham katta ishlar qilinmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda 15-aprel sanasi "Madaniyat va san'at xodimlari kuni" etib belgilangani bu yo'ldagi yangi qadam bo'ldi. "Avvalo, milliy madaniyatimiz va san'atimizda xalqchilik tamoyillarini yanada oshirish, uni tom ma'noda el-yurtimizning qalbi va yuragini ifoda etadigan, eng yuksak xalqaro mezon va talablarga javob beradigan sohaga aylantirish eng muhim vazifadir. Aholi, avvalo, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimizni turli buzg'unchi g'oyalar, ma'naviy tahdidlardan himoya qilish, jamiyatimizda tinchlik va barqarorlik, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashda biz sizlar kabi minglab fidoyi madaniyat va san'at namoyandalariga tayanamiz. Bu borada ulug' ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy "ibratxona" deb ta'riflagan teatrlarimizning o'rni va ta'siri katta ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz"¹.

Mas'uliyat darajasi yuqori bo'lgan madaniyat xodimlarining bugungi kundagi sa'y-harakatlari qanchalik to'g'ri baholanayapti? - degan haqli bir savol tug'iladi, albatta. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 19-iyundagi 458-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan davlat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari

madaniyat muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlariga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgartirish:

“Izoh: ma'muriy-boshqaruv xodimlarining bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari:

- fan doktori ilmiy darajasiga yoki fan doktori (Doctor of Science) yoki xorijiy davlatlarning ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lganlarga — 2,5 koeffitsiyentga oshirilgan holda belgilanadi;
- fan nomzodi ilmiy darajasiga yoki falsafa doktori (Ph.D) yoki xorijiy davlatlarning ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lganlarga — 2 koeffitsiyentga oshirilgan holda belgilanadi”.

“Izoh: Ijodiy xodimlar va mutaxassislarining bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari:

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasidagi “Qatag'on qurbonlari xotirasi” muzeylari, O'zbekiston davlat san'at muzeyi, “Samarqand” davlat muzey-qo'riqxonasi, “Buxoro” davlat muzey-qo'riqxonasi, “Ichan qal'a” davlat muzey-qo'riqxonasi, I.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat san'at muzeyi, O'zbekiston davlat tabiat muzeyi, O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyi, Fanlar akademiyasi muzeylarining bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari - 1,17 koeffitsiyentga;
- viloyatlardagi tarix va madaniyat davlat muzeylarida bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari — 1,08 koeffitsiyentga oshirilgan holda belgilanadi”.

2018-yil 1-iyundan davlat madaniyat muassasalari ma'muriy-boshqaruv, badiiy-rahbar, artist, ijodiy va boshqa xodimlarining mehnat haqi miqdorlari o'rtacha 45% ga oshirildi. O'sha paytda mehnatga haq to'lash guruhlarini inobatga olgan holda xodimlarning malaka toifalari va lavozimlari bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari tasdiqlandi.

2020-yil 1-fevraldan boshlab byudjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori 1,07 baravarga yoki 7% ga oshirildi. Tegishli, quyidagilarning maoshlari xuddi shu tarzda indeksatsiya qilindi:

- teatrlar va sirkning ma'muriy-boshqaruv va badiiy-rahbar xodimlari;
- teatrlar artist xodimlari;
- konsert tashkilotlari va saroylari (teatr-konsert saroyi) ma'muriy-boshqaruv va badiiy-rahbar xodimlar;
- konsert tashkilotlari, musiqa va raqs jamoalari, shuningdek tsirkdagi artist xodimlari;
- hayvonot bog'i xodimlari;
- davlat muzeylari, muzey-qo'riqxonalar, uy-muzeylari va boshqa muzey turidagi tashkilotlardagi ma'muriy-boshqaruv xodimlari, shuningdek, ijodiy xodimlari va mutaxassislari;
- madaniy-ma'rifiy muassasalarning ma'muriy boshqaruv, ijodiy va boshqa xodimlari;
- madaniyat markazlari xodimlari.

Ayrim muassasalar va xodimlar toifasi kesimidagi oshiruvchi koeffitsientlar o'zgarishsiz qoldirildi. Ish beruvchilar-byudjet muassasalariga yangi raqamlarni hisobga olib o'z xodimlarining ish haqlarini qayta hisoblab to'lash topshirildi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 26-maydagi “O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori mazkur masalaga

yechim bo'ldi, deyish mumkin. Qarorga ko'ra, Madaniyat vazirligi markaziy apparati xodimlari hamda hududiy madaniyat boshqarmalari, tuman va shahar madaniyat bo'limlari xodimlariga ko'p yillik mehnati uchun rag'batlantirish koeffitsiyentini hisobga olgan holda, lavozim maoshiga belgilangan koeffitsiyentlarda har oyda qo'shimcha pul to'lash tartibi joriy etildi.

Ma'lumot uchun, quyidagilar davlat madaniyat muassasalari hisoblanadi:

- teatrlar, teatr-studiyalar, sirkalar, saroylar, konsert tashkilotlari, shu jumladan, musiqali va raqs jamoalari;
- muzeylar, muzey-qo'riqxonalar, uy-muzeylar, davlat tarix va madaniyat muzeylari, kartina va fotogalereyalar, ko'rgazma faoliyati bilan shug'ullanadigan tashkilotlar;
- ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar va axborot-resurs markazlari, axborot-kutubxona markazlari, madaniyat markazlari, shu jumladan, xalq teatrlari, havaskorlik jamoalari;
- Madaniyat vazirligining Madaniyat muassasalari faoliyatini tashkil etish ilmiy-metodik markazi;
- Istirohat va hayvonot bog'lari, shuningdek, boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar.

Shuningdek, 2021- yilning 1-yanvaridan boshlab davlat byudjeti mablag'lari hisobidan Madaniyat vazirligi markaziy apparati xodimlarining Yagona tarif setkasi bo'yicha mehnatga haq to'lashning tasdiqlangan razryadlariga muvofiq, lavozim maoshini belgilashda tarif koeffitsiyenti – 1,4 baravarga, hududiy madaniyat boshqarmalarida – 1,2 baravarga oshirilgan miqdorda qo'llaniladigan bo'ldi.

Bunda, Madaniyat vazirligi, hududiy madaniyat boshqarmalari, tuman va shahar madaniyat bo'limlari xodimlarini Madaniyat vazirligining byudjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari hisobidan qo'shimcha rag'batlantirish ular faoliyatining natijadorligi va erishilgan yutuqlarga qarab amalga oshirilishi belgilab berildi.

Qayd etilishicha, 2022-yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining eng baland ko'rsatkichlari bank, sug'urta, lizing, kredit sohasiga to'g'ri kelgan. Mazkur sohalardagi o'rtacha oylik ish haqqi 9,73 mln so'mi tashkil etgan. Keyingi o'rinlarda esa axborot va aloqa sohasi (6,97 mln so'm), shuningdek, tashish, saqlash sohasi (4,85 mln so'm) va sanoat sohasi (4,70 mln so'm) qayd etilgan. Eng quyi pog'onalarni esa ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari egallagan. Ta'lim sohasidagi o'rtacha oylik miqdori 2,59 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xodimlar 2,51 mln so'm maosh oladi.

O'zbekistondagi San'at va madaniyat sohasida ishlayotgan insonlarning oylik maoshi odatda 1,400,347 UZS (minimum ish haqi) dan 3,737,231 UZS gacha (o'rtachaning eng yuqorisi, haqiqiy maksimum ish haqi bundan yuqori bo'lishi mumkin).

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasida 25-mart kuni Madaniyat vazirligi faoliyati muhokamasiga doir majlis bo'lib o'tdi. Bu haqda Senat axborot xizmati xabar qildi. Qayd etilishicha, unda madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirish borasida olib borilgan ishlar yuzasidan madaniyat vazirining axboroti eshutilgan. Muhokamalar jarayonida sohada amalga oshirilgan ishlar bilan birga ayrim kamchiliklar ham mavjudligi ta'kidlangan. Senator Sayfullayev Madaniyat vazirligi tizimida oliy ma'lumotli kadrlar yetishmayotganini tanqid qilib, bilimsiz xodimlarni chetlashtirish

taklifini bildirgan. E'tirozlarga javoban Nazarbekov ma'lum muddat vazirlik tizimidagi xodimlar maoshi keskin tushib ketgani ortidan xodimlarda ishchanlik qobiliyati pasayganini, ammo hozirda vaziyat ijobiy hal etilganini ma'lum qilgan. "O'sha paytlarda nafaqat talab qilsam, hatto, sal qovoq solib, qattiq gapirsam ham ketib qolayotgandi, xodimlar. O'zi zo'rg'a yurishgandi", - deydi vazir.

So'nggi yillarda san'at yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalari pedagog-xodimlariga salmoqli darajada ilmiy-tadqiqot ishi yuklatib qo'yildi. Diplom bo'yicha mutaxassisligi tadqiqotchi bo'lmagan san'atkor, rassom, haykaltarosh, xoreograf, rejissyorlardan sof ilmiy faoliyat yuritish talab etilyapti. Natijada, pedagog-xodimlar o'zi uchun odatiy bo'lmagan ilmiy faoliyatni olib borish uchun o'zining yillar davomida shakllanib, qaror topgan kasbiy maqomidan uzoqlashishga majbur bo'lmoqda. Albatta, har bir ijodkor-ustoz xayrixohlik asnosida o'zining ijodiy-pedagogik tajribalarini kitob, o'quv qo'llanma yoki maqola tarzida ommalashtirishga haqli va shunday bo'lmoqda ham. Ammo yuqori mutasaddi tashkilotdan keladigan turli tekshiruvchilar tomonidan professor-o'qituvchilarning salohiyatini belgilashda ularning kasb mahorati va malakasi emas, balki uning ilmiy dissertatsiya yozib, himoya qilganligi asosiy omil sifatida tan olinayotgani achinarli holdir.

Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi, degan edilar muhtaram Prezidentimiz. Xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni, avvalo, milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Yangi O'zbekiston gazetasi 16-avgust 2021-yildagi soni.
2. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.03.2019-yildagi 264-son.
3. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.06.2018-yildagi 458-son.
4. Xs.uz – "Madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi".
5. Ishhaqi.uz.
6. Fayziyev T., Sobirjonova D., Sulaymonov B. Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish (ma'ruzalar matni). - T.: 2002.
7. 16. Xaydarov A. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari. –Toshkent: G'.G'ulom, 2016.
8. Qosimova D. Menejment nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2011.
9. Haydarov A. Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. – Toshkent: G'.G'ulom, 2018.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusidagi suhbat.

11. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 370-376.
12. Orinov S. K., Qodirova V. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O‘RGANISHDA “AVESTO” NING O‘RNI //TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 83-86.
13. Orinov S. K., Boboqulova S. MADANIYAT VA SAN’AT BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 78-82.
14. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 68-72.
15. Orinov S. K., Abdusalomova H. TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 766-770.
16. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUV //TA’LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 73-77.

MADANIYAT SOHASIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

Sh.K.O‘rinov

BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyati kafedrası o‘qituvchisi

M.Nutfilloyeva

BuxDU San‘atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Yurtimizda mustaqillikkacha bo‘lgan yillar davomida madaniyatimiz mustabit tuzum tazyiqi davrida G‘arb madaniyatiga taqlid ruhida rivojlandi. Bugungi kunga kelib mamalakatimizda bir qancha sohalarda sezilarli darajada o‘zgarishlar yuz berdi. Shu o‘rinda madaniyat sohasida ham tub islohotlar amalga oshirildi. Ushbu maqola orqali biz madaniyat sohasida inson resurslarini boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlari, mazmuni, shu bilan birgalikda, inson resurslarini boshqarishning ijtimoiy munosabatlari va boshqarish jarayonidagi muammolari, O‘zbekistonda bu sohaning rivojlanishidagi qarashlarimizni yoritib beramiz.

Tayanch so‘zlar: Madaniyat, inson resurslari, menejment, boshqaruv jarayoni.

Аннотация: За годы до обретения независимости в нашей стране наша культура развивалась в духе подражания западной культуре в период давления со стороны установленного режима. На сегодняшний день в ряде сфер нашей страны произошли существенные изменения. Коренные реформы были осуществлены и в области культуры. В этой статье мы осветим особенности и содержание управления человеческими ресурсами в сфере культуры, а также социальные отношения и проблемы процесса управления человеческими ресурсами, а также наши взгляды на развитие этой области в Узбекистане.

Ключевые слова: культура, человеческие ресурсы, управление, процесс управления.

Abstract: During the years before independence in our country, our culture developed in the spirit of imitation of Western culture during the period of pressure from the established regime. To date, significant changes have taken place in a number of areas in our country. Fundamental reforms were also implemented in the field of culture. Through this article, we will highlight the specific features and content of human resources management in the field of culture, as well as the social relations and management process problems of human resources management, and our views on the development of this field in Uzbekistan.

Key words: Culture, human resources, management, management process.

Maqolamizning mazmuninini to‘laqonli ochib berish uchun, avvalo, biz madaniyat tushunchasi mazmunini bilishimiz kerak. Madaniyat – jamiyat, inson ijodiy kuch va qobilyatlari tarqqiyotining muayyan darajasi. Bu tushuncha keng qamrovlidir. Antropologiya sohasida madaniyat tushunchasi o‘z ichiga mahsulot ishlab chiqarish, shu bilan birgalikda, estetik ma’no-mazmun berish kabi ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. IX asrning oxiri va XX asrning

boshlarida Turkistondagi jadidchilik namoyondalari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy va boshqalar madaniyatimizni targ'ib qilishda va xalqning umummadaniyatini yuksaltirishda munosib hissa qo'shdilar. O'zbekiston Mustaqillikka erishgach boshqa sohalarda bo'lganidek, madaniyat sohasida o'zgarishlar ro'y berdi. Madaniyatimizni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. So'zimizning amaliy natijasi sifatida 2002-yilda tashkil topgan O'zbekiston davlat konservatoriyasi, O'zbekiston milliy akademik drama teatri (2000-yil), qolaversa, madaniyat sohasida qabul qilinayotgan bir qancha qaror va farmonlar sohaga qaratilayotgan e'tibor natijasidir.

Inson resurslarini boshqarish – boshqaruv nazariyasining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston bilan xorijiy davlat tashkilotlarining madaniyat sohasidagi tajribasini umumlashtirish madaniyat sohasida inson resurslarini boshqarishning asosiy maqsadlarini, ya'ni kadrlar bilan ta'minlash, ularning samarali ishlashini, kasbiy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishning paydo bo'lishiga imkon yaratadi, deb o'ylaymiz. Inson resurslarini boshqarish o'z ichiga bir qancha bosqichlarni qamrab oladi:

-resurslarni rejalashtirish: inson resurslariga kelgusi ehtiyojlarni qondirish rejasini ishlab chiqish;

-personalni to'plash: barcha lavozimlar bo'yicha potentsional nomzodlar rezervini tashkil etish;

-tanlash: ish joylariga nomzodlarni baholash va rezervdan eng yaxshilarini tanlash;

-ish haqi imtiyozlarini aniqlash: xizmatchilarni jalb qilish, yollash va saqlab qolish maqsadida ish haqi va imtiyozlar strukturasi ishlab chiqish;

-kasbga yo'naltirish va moslashuv: yollangan ishchilarni tashkilot va uning bo'linmalari bilan tanishtirish, ishchida undan nima kutilayotganligi haqida tushuncha hosil qilish va har qanday mehnat yaxshi baholanishini tushuntirish;

-o'qitish: ishni samarali bajarish uchun kerakli mehnat ko'nikmalarini o'rgatish uchun dasturlar ishlab chiqish;

-mehnat faoliyatini baholash: mehnat metodikasini ishlab chiqish va uni xodimga yetkazish;

-o'stirish, pasaytirish, o'tkazish, bo'shatish: xodimlarni lavozimlarga yoki boshqa ish uchastkalariga o'tkazish metodlarini ishlab chiqish;

-rahbar kadrlarni tayyorlash, xizmat ko'rsatishlarini boshqarish: rahbar xodimlarni mehnat samaradorligini ko'rsatishga va qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish kabilar.

Menejer qo'l ostidagi asosiy resurs insonlar hisoblanadi. Shuni inobatga olib aytishimiz mumkin, insonlar munosabati sohasida ham, insonning o'zida ham ko'p o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Har bir kishi shaxsiy xususiyatlar, xarakter va muammolarga ega. Ma'lumotlarga ko'ra, AQSH va Kanadada ishlab chiqarishda faol kishilarning o'rtacha yoshi 34-35 atrofida, Meksikada esa bu ko'rsatkich 19 yoshga teng ekan. Mamlakatlar demografik ahvolidan bunday farqlanishi inson resurslari sohasidagi muammolar isbotidir. Tashkilot madaniyati yoki korporativ madaniyat xodimlar faoliyatini belgilashda xizmat qiladi, uning talablariga mos

kelishi imkonini beradi, muammoni yechishda, qabul qilingan qarorni anglash va nima uchun bunday qaror qabul qilinganligini ifodalaydi. Madaniyat sohasida inson resurslarini boshqarish murakkab munosabatlar majmuyi bo'lib, uni yuksaltirish masalasiga ham jiddiy e'tibor berishimiz kerak. Buning uchun faoliyatga oid aniq mo'ljallarni belgilash, inson resurslarini boshqarishda shaxslararo munosabatlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. M.M.Azlarova "Inson resurslarini boshqarish" o'quv qo'llanma. Toshkent iqtisodiyoti, 2019.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.- Toshkent: 2000-yil.
3. Xaydarov A.. Madaniyat va san'at sohasini boshqarish asoslari.- Toshkent: G'.G'ulom. 2016.
4. Karimov I. A., O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura, 1-j.,- T., 1996; Ma'naviy yuksalish yo'lida,- T., 1998;
5. Xayrullayev M.M., Shorahmedov D.A.. Madaniyat va meros. - T., 1973.
6. O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". - Toshkent, 1998-yil

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИГРОВОГО ОБУЧЕНИЯ ГРАММАТИКЕ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ

Халлиева К.Р.

ст.преп.УрГУ

Юсупова Д.У.

Магистр национального исследовательского университета, «Высшая Школа
Экономики»

Юсупова Д.У.

Магистр УрГУ

Аннотация: Данной статьи заключается в том, что в последние годы лингвисты и ученые переключили свое внимание с развития индивидуальных языковых способностей на использование языка для достижения целей говорящего.

Ключевые слова: Предмет, лингвист, способность, ученик, аспект, играть, использовать, материал, грамматика, упражнения, игра, иностранный язык.

Annotation: This article lies in the fact that in recent years linguists and scientists have switched their attention from the development of individual language abilities to the use of language to achieve the goals of the speaker.

Key words: Subject, linguist, ability, student, aspect, play, use, material, grammar, exercises, game, foreign language.

Иностранный язык является одним из предметов, которым должны овладеть ученики, изучающие иностранный язык, особенно учащиеся младших классов средней школы. Ученики должны учитывать правила в предметах иностранного языка, такие как правило грамматики при создании предложений. Большинство учащихся младших классов средней школы сталкиваются с трудностями при использовании соответствующих предложений, основанных на правиле или принципе грамматики. Иногда ученикам также становится скучно изучать иностранный язык в аспектах грамматики. Грамматика играет важную роль в обучении иностранным языкам. Учителя сосредотачиваются на обучении методам и приемам обучения грамматике, закреплении знаний, полученных с помощью упражнений, и использовании изученного материала в речи. Грамматические упражнения важны для развития умения использовать грамматический материал на протяжении всего урока. Преподаватели иностранных языков стремятся сделать эти занятия красочными и увлекательными для как можно большего числа учащихся. Большое внимание уделяется использованию визуализации. Изучение иностранной грамматики, упражнения и другие конкурсы и мероприятия занимают значительную часть занятий. Дети быстро устают от утомительных классных приемов работы, их концентрация становится неустойчивой, они перестают воспринимать предмет. В результате игра должна использоваться для изучения иностранного языка. Мы все давно знаем об образовательном потенциале игр. Многие

известные педагоги правильно подчеркивали ценность использования игр в учебном процессе.

Использование игр в обучении иностранному языку.

Студенты могут учиться в приятной и спокойной обстановке, играя в игры. Студенты могут использовать язык без стресса после изучения и практики новых грамматических материалов. Внимание учащихся привлекается к сообщению, а не к языку во время игр. Вместо того, чтобы сосредотачиваться на достоверности языковых форм, большинство игроков сосредоточатся на победе. Это снижает страх перед неблагоприятной оценкой, а также боязнь публичного осуждения, что является одним из самых больших препятствий для изучающих язык, использующих целевой язык в общественных местах. В игровой обстановке снижается тревога и улучшается беглость речи, что приводит к коммуникативной компетентности.

Игры также могут быть весьма обнадеживающими. Игры привносят соревновательный аспект в изучение языка. Это значительно повышает намеренное использование языка. Иными словами, эти действия обеспечивают значимый контекст для использования языка. Конкурентная среда также побуждает учеников концентрироваться и глубоко думать в процессе обучения, что способствует усвоению знаний. Большинство студентов, принимавших участие в игровой деятельности, отзывались о ней положительно. Студенты сообщили, что им понравилось расслабленное настроение, конкуренция и стимул, которые игры предлагали классу в исследовании деятельности, проведенном Нууен и Нга. Что касается полезности игр, Нууен и Нга (2003) отметили, что исследование действий показало, что в тихой и комфортной обстановке дети учатся быстрее и лучше запоминают информацию.

В девяти пунктах можно резюмировать преимущества использования игр в изучении языка:

- Игры, предназначенные для студентов.
- Улучшить коммуникативные способности.
- Обеспечить соответствующий контекст для использования языка.
- Повысить мотивацию к обучению.
- Меньше беспокоиться об обучении.
- Комбинируйте различные языковые таланты.
- Поощряйте использование языка новыми и неожиданными способами.
- Создавать среду для совместного обучения.
- Поощряйте участие учащихся

Литература

1. Агмезки Уберман «Использование игр для представления и повторения словарного запаса». «Форум» том 36 N 01, январь-март 1998 г. стр. 20.
2. Беттеридж Д., Бакби М., Райт А. Игры для изучения языка. Издательство Кембриджского университета, 1983, ISBN 0 521 27737

3. Вернон, С. (2006). Преподавание грамматики с помощью веселых обучающих игр (6 декабря), [он-лайн]: получено 26 февраля 2008 г., по URL-адресу: <http://www.simplyesl.com/articles/97/1/Teaching-Grammar-with.-Fun-Learning-Games/Page1.html>.
4. Дисри, А. (2002). Игры в классе ESL и EF. Интернет-журнал TESL, вып. VIII, № 9.
5. Кэмерон, Л. (2001). «Преподавание языков юным ученикам». Кембридж: Издательство Кембриджского университета, стр. 1–35.
6. Ларсен-Фриман, Дайан, Андерсон, Марти Методы и принципы преподавания иностранных языков. 1. выд. Нью-Йорк: OUP, 1986. ISBN 019434133X.
7. Ринволукри, Марио. Грамматические игры: познавательные, аффективные и драматические занятия для учащихся EFL. 1. выд. Кембридж: издательство Кембриджского университета, 1984. ISBN 9780521277730.

BOSHQARUV MADANIYATI: TARKIBI, FUNKSIYALARI, MEZONLARI

Sh.K.O‘rinov,

BuxDU Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o‘qituvchisi

M.G‘aybulloyeva,

BuxDU San‘atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshqaruv madaniyati, funksiyalar, mezonlari shuningdek davlat, nodavlat tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish jarayonlari haqida fikr yuritiladi. Asosiy urg‘u madaniyat markazlari faoliyatini samarali tashkil etish, amalga oshirilayotgan ishlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: boshqaruv, boshqaruv madaniyati, boshqaruv funksiyalari.

Annotatsion: This article discusses management culture, functions, criteria, as well as the processes of effectively organizing the activities of state and non-state organizations. The main emphasis is on the effective organization of the activities of cultural centers, the ongoing work is covered.

Keywords: management, management culture, management functions.

Аннотация: В данной статье рассматриваются культура управления, функции, критерии, а также процессы эффективной организации деятельности государственных и негосударственных организаций. Основной акцент делается на эффективную организацию деятельности культурных центров, освещается проводимая работа.

Ключевые слова: менеджмент, культура управления, функции управления.

Madaniyat tushunchasi rivojlanishi darajasining umumlashtiruvchi ko‘rsatkichi bo‘lib, bir qancha ma‘noni bildiradi. Masalan jamiyat madaniyati, ayrim shaxs madaniyati va nihoyat, inson faoliyatining ayrim turi madaniyati haqida so‘z yuritish mumkin. Inson faoliyati moddiy va ma‘naviy boyliklar yaratuvchi turlarga bo‘linadi. Shu sababli, moddiy va ma‘naviy madaniyat farq qiladi.

Insoniyat madaniyati o‘svuchan, o‘zgaruvchan, chunki hozirgi avlod avvalgi avlodlar madaniy qadriyatlaridan ijodiy foydalanish asosidagina yanada rivojlanishi mumkin. O‘zbekistonning noyob madaniyati yillar, asrlar davomida shakllanib, uni saqlash, rivojlantirish ko‘p millatli respublikaning olimlari, fan, adabiyot, san‘at arboblari vazifasidir.

Inson hayoti faoliyatining muhim tarkibiy qismi butun insoniyat tomonidan jamlangan madaniy boylikka ega bo‘lish, shu jumladan boshqaruv madaniyatini egallashdir.

Insoniyat o‘z rivojlanish jarayonida juda katta boshqaruv tajribasini jamlagan. Bozor sharoitida bu tajriba boshqaruv sam aradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Boshqaruvning vujudga kelishi va rivojlanishi, avvalo, boshqaruv madaniyati darajasi yuksalishi bilan bog‘liqdir. Chunki, boshqaruv yo‘llari, usullari, vosita va uslublariga tanqidiy baho berish yo‘li bilan, ularning eng yaxshilari jahon tajribasida qo‘llanishi uchun ajratib olindi. Boshqaruv madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lish bilan birga qator o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Madaniyatga ega bo‘lish menejer uchun faqat zarur emas, balki shartdir,

chunki har bir tashkilotning har bir bo‘linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo‘lishlari kerak.

Madaniyat insonning rivojlanishida, xalqning o‘zligini anglashida yordam beruvchi omildir. Madaniyat 2 turga bo‘linadi moddiy va nomoddiy. Moddiy madaniyat bu inson qo‘li bilan ushlab ko‘zi bilan ko‘ra oluvchi narsalar. Masalan: tarixiy inshootlar, taqinchoqlar, uy ro‘zo‘or buyumlari bular barchasi moddiy madaniyatga misol bo‘ladi. Nomoddiy madaniyat esa bu ilm, xalq og‘zaki ijodi, shashmaqom kuyi, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan urf odatlar, milliy an‘analari, hunarmadchilik ilmlari va hokazolar. Bularning barchasi: moddiy va nomoddiy madaniyat o‘tmishda bizning ajdodlarimiz qanday insonlar bo‘lishgani, hayot tarzlari ularning madaniyati haqida so‘zlaydi. Har bir xalqning o‘z tarixi, urf-odatlar va necha yillar davomida shakllanib kelgan madaniyati mavjud.

Boshqarish - xo‘jalik obyektining iqtisodiy va madaniy tizimi holatini tartibga solish va yo‘naltirish jarayoni, subyektlar ya‘ni idoralar tomonidan kishilar va iqtisodiy va madaniy ob‘yektlarga ongli maqsadga muvofiq ta‘sir ko‘rsatishni bildiradi, ularning faoliyatini yo‘naltirish va ko‘zlangan natijalarga erishish maqsadlarida amalga oshiriladi. Boshqaruvni qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, boshqaruvchi (boshliq yoki o‘sha sohadagi rahbar) tomonidan boshqariluvchilar (ishchilar ya‘ni rahbardan quyi poo‘onada turuvchi lavozimdagilar) bilan uzoqni ko‘zlangan holda aniq ishlab chiqilgan strategiya asosida aniq bir maqsad uchun harakat qilishiga boshqaruv deyiladi.

G‘arb boshqaruvining bugungi zamonaviy nazariyasi boshqarish funksiyalarini tasniflashda, eng avvalo uning asosiy (umumiy) funksiyalariga ustuvorlik beradi:

- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- nazorat;
- rao‘batlantirish (motivlashtirish).

Boshqaruv madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, menejerlar madaniyatini, boshqaruv jarayoni madaniyati, boshqaruv texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi. Boshqaruv madaniyati unsurlarining turli-tumanligi boshqaruv jarayonida turli-tuman me‘yorlarga, jumladan, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnik, estetik me‘yorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Axloqiy me‘yorlar insonning axloq va odob sohasidagi xulqini tartibga soladi. Ular jumlasiga ijtimoiy burchni to‘o‘ri tushunish, insoniy munosabat va o‘zaro hurmat, vijdonlilik, haqiqatgo‘ylik, kamtarlik va boshqalar kiradi. Boshqaruv jarayonida axloqiy me‘yorlarga rioya qilish uning madaniyat darajasi yuqoriligidan dalolat beradi.

1. Rejalashtirish – bu sohadagi qilayotgan ishlarini avval bitta o‘oya asnosida rejalashtirishi kerak;

2. Tashkil etish – rejalashtirilgan o‘oyasini amalga oshirishi uchun tashkil etishi va uni tizimli va tartiblar asosida boshqarishi kerak;

3. Tartibga solish – bajarilishi kerak bo‘lgan ishlarni funksiyasiga qarab ishchilarga bo‘lib berish va topshiriq muddatdan o‘tib ketgan taqdirda ishchini ogohlantishiki yoki aksi bo‘lsa uni birinchi tartibda ishchilarga o‘rnak sifatida ko‘rsatish kerak;

4. Nazorat – bajarilishi loo‘im bo‘lgan ishlarni rahbarning o‘zi nazorat qiladi bo‘lmasa o‘sha soha inqirozga yuz tutishi mumkin;

5. Rag‘batlantirish (motivlashtirish) – rahbar ish faoliyati davomida o‘z ishiga sodiq va sitqu dildan ishlaydigan va o‘z vazifasini muddatdan oldin qiladigan ishchilarni avval oo‘zaki tarzdan hammaga o‘rnat tarzdan ko‘rsatishi va bu davomli bo‘ladigan bo‘lsa turli xildagi sovg‘alar, pul ko‘rinishida yoki oilaviy biror joyga sayohat uchun biletlar taqdim etishi mumkin, bu sohaning o‘shiga va boshqa hamkasblarining shunday natijaga erishishi uchun ko‘maklashishi mukin;

Boshqaruvning jarayon sifatida mohiyati uning vazifalarida ifodalanadi. Boshqaruv vazifalari deganda, boshqarish bo‘yicha ma‘lum masalalarni hal etishga qaratilgan harakat yig‘indisi tushuniladi.

Bugungi kunda birgina Madaniyat vazirligi tassrufidagi madaniyat muassasalari ayniqsa madaniyat markazlari faoliyatini tubdan takomillashtirish hamda ularga aholini ayniqsa yosh avlodni keng jalb qilish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda madaniyat markazlari faoliyatini o‘zini o‘zi moliyalashtirish masalalari turli davlat dasturlari hamda qonun osti hujjatlarida o‘z aksini topmoqda. Madaniyat vazirligi tizimidagi madaniyat markazlarini faoliyatini boshqarishda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabrdagi 4038-sonli qarorlariga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 25-iyundagi 178-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Chunonchi, madaniyat va aholi dam olish markazlari nomi madaniyat markazlari nomi bilan hamda har bir tumandagi markaziy madaniyat markazi tushunchasi o‘rniga tuman madaniyat bo‘limi hamda uning tasarrufidagi madaniyat markazlari filliallari qayta kiritildi. Bu esa o‘z navbatida tuman madaniyat bo‘limi rahbarining ish faoliyatini bir muncha samarali tashkil etish uchun dasturul amal bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bundan tashqari, Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 28-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘o‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori bilan birinchi navbatda markazga aholini keng jalb qilish uchun uning nomiga e‘tibor qaratildi va madaniyat va aholi dam olish markazlari nomi, madaniyat markazlari nomi bilan almashtirildi. Qaror bilan hududlarda zamon talabiga javob bermaydigan binolarga faoliyat olib borayotgan madaniyat markazlari uchun turli davlat dasturlari hamda budjet mablag‘lari hisobidan 21 tasi yangi bino bilan, 45 tasi rekonstruksiya, 76 tasi kapital ta‘mirlash birlamchi vazifa sifati belgilandi.

Boshqaruv vazifalari, avvalo, boshqariluvchi obyektning o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqadi. Ishlab chiqarish tarkibiga mos ravishda quyidagilarni aks ettiruvchi vazifalar mavjud bo‘ladi:

- iqtisodiyotning tarmoq tarkibi;
- uning hududiy tarkibi;
- ishlab chiqarishning alohida unsurlarini.

Milliy xo‘jalikning tarmoq tarkibi boshqaruv oldiga moddiy ishlab chiqarishni boshqarish va nomoddiy ishlab chiqarishni boshqarish kabi vazifani qo‘yadi. Birinchi soha tarkibida ishlab chiqarish va muomala sohaslarini boshqarishni ajratadilar. Ishlab chiqarish sohasini boshqarishga sanoat va uning tarmoqlarini boshqarish, qurilishni, transport, aloqani boshqarish vazifalari; muomala sohasini boshqarish vazifalariga savdoni, moliya, moddiy-texnika ta‘minot sohaslarini boshqarish vazifalari esa fan, madaniyat, ta‘lim sohaslarini boshqarishni qamrab oladi. Ishlab

chiqarishni boshqarish vazifalarining hududiy tarkibiga respublika, viloyat, shahar, tuman miqyosidagi boshqaruv vazifalari kiradi. Ishlab chiqarishning boshlang'ich bo'g'ini – korxonani boshqarish muhim vazifadir. Boshqaruv vazifalari boshqaruv tashkilotlari, bajaruvchilar va boshqaruv apparati vazifalarini belgilab beradi.

Xulosa o'rnida madaniyat ayrim shaxsga tegishli yoki malum bir jamiyatga tegishli bo'lishi mumkin. Har bir inson o'zi tug'ilib o'sgan maskanning urf-odatlarini, an'analari va madaniyatiga moslashadi. Agar uning atrofidagi insonlar madaniyat darajasi pastroq, insonlarga nisbatan qo'pol bo'lsa o'sayotgan inson ham shunga moslashadi. Chunki yosh bolani faqat otanasi emas balki jamiyat ham tarbiyalaydi. Shuning uchun shaxs madaniyati ham, jamiyat madaniyati ham uzviy bog'liqdir. Shaxslar, oilalardan jamiyat tuziladi. Agar o'sha shaxslar, oilalar madaniyatli bo'lsa jamiyat ham madaniyatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 370-376.
2. Orinov S. K., Qodirova V. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O'RGANISHDA "AVESTO" NING O'RNI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 83-86.
3. Orinov S. K., Boboqulova S. MADANIYAT VA SAN'AT BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 78-82.
4. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 68-72.
5. Orinov S. K., Abdusalomova H. TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 766-770.
6. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUV //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 73-77.
7. O'rinov S. K., Abduraxmonova X. MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 226-231.

TOG‘AY MUROD ASARLARIDA EVFEMIZMLAR

O‘razov Alisher Doniyorovich

Guliston davlat univertiteti

Email: orazovalisher96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mohir qalam ustasi bo‘lmish Tog‘ay Murodning asarlarida qo‘llanilgan evfemizmlar keltirilib o‘tiladi va tahlil qilinadi. Shuningdek, Tog‘ay Murodning til unsurlaridan foydalana olish mahorati ham batafsil yoritib o‘tilgan. Zero, Tog‘ay Murod mohir so‘z san‘atkori sifatida o‘z ijodida til va ma‘naviyat, madaniyat mushtarakligining uyg‘un holdagi ko‘rinishlarini namoyon qilib, o‘zbek ma‘naviyati, milliy ibo, nazokat va andishani go‘zal va dilbar tilimizda ifoda etish mahoratini namoyish etdi. Mazkur maqolada Tog‘ay Murod asarlaridagi evfemizmlar ma‘nolari hamda qo‘llanish o‘rinlari bilan tanishasiz.

Kalit so‘zlar: tabu, evfemizm, badiiy so‘z, tilshunoslik, til birliklari, Botir firqa, Oymomo, olqish, qarg‘ish.

Аннотация: В данной статье представлены и проанализированы эвфемизмы, используемые в творчестве Тогая Мурада, искусного мастера пера. Кроме того, подробно рассматривается способность Тогая Мурада использовать языковые элементы. Ведь Тогай Мурад, как искусный художник слова, показал в своем творчестве гармоничные проявления языка, духовности, культуры, узбекской духовности, национального языка, изящества и духа, продемонстрировал умение выражаться на нашем изящном и очаровательном языке. В этой статье вы познакомитесь со значениями и местами употребления эвфемизмов в произведениях Тогая Мурада.

Ключевые слова: табу, эвфемизм, художественное слово, языкознание, языковые единицы, батырская фракция, оймомо, аплодисменты, ругательство.

Annotation: This article presents and analyzes the euphemisms used in the works of Togay Murad, a skilled pen master. Also, Togay Murad's ability to use language elements is covered in detail. After all, Togay Murad, as a skilled word artist, showed in his work the harmonious manifestations of language, spirituality, culture, and Uzbek spirituality, national idiom, elegance and spirit. He demonstrated the skill of expressing in our elegant and charming language. In this article, you will get acquainted with the meanings and places of use of euphemisms in the works of Togay Murad.

Keywords: taboo, euphemism, artistic word, linguistics, language units, Batir faction, Oymomo, applause, cursing.

KIRISH. Har bir qalam ahlining til unsurlaridan foydalana olish mahorati o'ziga xosdir. Ijodkorning til imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olishi asnosida bashariyatga xos bo'lgan yuksak odamiylikni talqin qilib va bu orqali o'z ijod mahsulining umrboqiyiligini, asrlar osha yashab qolishini ta'minlagan bo'ladi.

Tog'ay Murodning so'z qo'llash mahorati haqida o'z zamondoshlari va keyingi avlod adabiyotshunoslari tomonidan munosib fikrlar bildirilgan. Biroq, til badiiy tafakkur mahsuli ifodalovchisi ekan, adib ijodining ulug'vorligini ta'minlovchi asosiy vositalardan biri sifatida uning til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini chuqur va atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, adibning individual nutqiga atroflicha baho berish, idiolekti lug'atini tuzish, qo'llangan til birliklarining statistik tavsifini berish amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbek formal va nazariy tilshunosligida evfemik, disfemik ma'noli vositalarni o'rganish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmagan. Bugungi kunda nutqiy strukturani ilmiy tadqiq qilish muammosi doirasida mazkur vositalarni ham tadqiq qilish dolzarb masaladir.

Lisoniy hodisalarni ilmiy o'rganish zamon bilan hamqadam rivojlanadi. Shunga muvofiq ravishda, har bir davrda o'rganish ob'ektining yangidan-yangi qirralari namoyon bo'ladi. Masalan, o'tgan asrning o'rtalarida o'zbek tilshunosligida evfemik birliklarning mohiyati, asosan, tabu hodisasi bilan bog'lab o'rganilgan bo'lsa, bugungi kunda ular nafaqat qo'llanishi ijtimoiy taqiqlangan til birliklari o'rnida ishlatiluvchi vositalar sifatida, balki uslubiy bo'yoq, nutqiy bemazalilik, fikrni nozik bayon etish, qolaversa, sharqona madaniyatga xos hurmat (ismini aynan aytmaslik) maqsadida qo'llanuvchi, so'zlovchining manipulyativ taktikasini ta'minlovchi kabi vositalar sifatida ham qaralmoqdaki, bu ilmiy tadqiqotlar evfemizmlarning mohiyati sari yanada chuqurlashayotganligidan dalolat beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Tog'ay Murod mohir so'z san'atkori sifatida o'z ijodida til va ma'naviyat, madaniyat mushtarakligining uyg'un holdagi ko'rinishlarini namoyon qilib, o'zbek ma'naviyati, milliy ibo, nazokat va andishani go'zal va dilbar tilimizda ifoda etish mahoratini namoyish etdi.

Adib asarlarida evfemik vositalar rang-barang ko'rinishlarga ega. Ularni ma'lum bir muhim belgilar asosida turli tomondan tasniflash – adib mahoratini ochishning ibtidosi. Tog'ay Murod asarlarida qo'llangan evfemik vositalarning mavzuviy rang-barangligi, semantik ko'lamdorligi, shakliy xilma-xilligi tasnif jarayonida muayyanlashdi.

Tog'ay Murod evfemik vositalarni o'z o'rnida mohirlik bilan qo'llab, har bir hodisa, shaxs, voqelik va unga o'z munosabati tasvirida go'zal evfemik vositalar tanlaydi, mavjud barqaror birikmalarga ham evfemik tus beradi. Natijada voqea-hodisalar, shaxsning ichki va tashqi qiyofasi hamda adibning ularga badiiy-estetik munosabati ta'sirli ifodalanadi. Tog'ay Murodning asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ijodkorning novatorligiga guvoh bo'lamiz. Har qanday yoqimli narsa, yoqimli so'z odamga yoqadi, kayfiyat bag'ishlaydi. Lekin aksi

bo'lsa-chi? Odatda, har qanday odamga qabrison, mozoriston, go'riston degan so'zlar xush kelavermaydi. Bu joyni evfemik ifodalash ana shunday sovuq tushunchani anchayin yumshatadi. Ijodkor asarda qabrison so'zini qo'llashdan chekinib, uni marhumlar shahri tarzida matnga olib kiradi:

Botir firqa marhumlar shahri aro ravona bo'ldi. «Bilaman, keladigan joyim, bilaman, — dedi. — Ammo-lekin, qanday qilib kelaman?» Botir firqa marhumlar shahrini sayr etdi. Shahar yo'laklari bo'ylab sayr etdi. Marhumlar shahri obod ham sarishta bo'ldi. Marhumlar shahri xushhavo ham xushmanzara bo'ldi. U shaharni sayr etdi-yetdi — qaytib ketmoqchi bo'ldi.

Yozuvchining badiiy mahorati, salohiyati har nafasda sezilib turadi. So'z qo'llashdagi mahorat individuallikni belgilaydi. Badiiy asar qaysi voqeani yoritmasin, ijobiy mazmundagi voqeami, salbiy ma'nodagi voqeami, kitobxonga estetik zavq berishi kerak.

Tog'ay Murod asarda **ersiz ayol, eri yo'q ayol, yolg'iz ayol** tushunchalarini matnda ifodalash uchun boshi ochiq iborasini evfemik qo'llaydi. Boshi ochiq iborasini qahramonning nutqida qo'llab, uning ma'naviy dunyosi juda pok, tiniq ekanligini kitobxon ko'z o'ngida gavdalantira olgan.

Afsuski, boy rasm-rusumlarimiz, urf-odatlarimizni chuqur bilmaymiz. O'zbek oilasida ayol o'z yostiqdoshini, umr yo'ldoshini **erim** deb aytishni ma'qul topmaydi. Mazkur asar kitobxonni milliy ruhda tarbiyalashga ulkan hissa qo'shadi. Shu o'rinda, quyidagi misolga e'tiborni qaratamiz. Dehqonqulning ayoli turmush azoblaridan charchaydi. Ko'z ochib ko'rgani: dala va uy. Oxir-oqibat bunday azoblardan qutulish uchun o'ziga o't qo'yadi. Uni shifoxonaga olib borishadi:

Qabulxonada pichir-pichir boshlandi. — **Erkagi ekan**, sho'rpehonani erkagi ekan. — Hay, bechora-ye, bechora. — E, tavba-ye, tumanda bir oyda to'rtta shunday ko'rgilik bo'ldi-a? (Otamdan qolgan dalalar).

Shu joyida yana bir misolga e'tibor beramiz. Bu gap yuqoridagi misolni yana bir bor tasdiqlaydi:

Dardimni aytayin deyman, chappa burilib yotib oladi... — Nima darding bor, ayta ber. — O'-o'y, ayollar Xo'jai Obigarmga tomoshaga borayapti ekan. — Ha-a. — Bari **erkagi** bilan borayapti ekan. — Ha-a. — Xo'janov muallim **ayoli bilan** bosh bo'lyapti ekan. — Ha-a. — Bir hafta yotib kelar ekan. — Bir hafta? Paxta nima bo'ladi? Ayolimiz aytib-aytib yig'ladi: — Shunday deyishini bilib edim (Otamdan qolga dalalar).

Yana shuni aytib o'tish joizki, O'zbek xalqi olqishlardan nutqiy muloqotda juda unumli foydalanadi: hormang, charchamang, baraka toping, ishingizga baraka, yo'lingiz bexatar bo'lsin, yo'lingiz unsin kabi. "Yaxshi niyat - yarim mol" deganlaridek, olqishlar kishi ruhiyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Buni quyidagi parchada ham ko'rishimiz mumkin:

Akamiz oxirgi gapirgan Yo'ldosh traktorini atayin yonlab o'tdi. - **Yo'lingiz unsin,** Qoplon aka! (Oydinda yurgan odamlar,129-b).

Shuningdek, evfemik qo'llangan qarg'ishlar jonli xalq tilidan shunchalar mustahkam o'rin olganki, real hayotni bu kabi qarg'ishlarsiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham Tog'ay Murodning asarlari tili nihoyatda sodda, tushunarli, shirali, balandparvoz o'xshatishlardan holi.

Baqirmang-ye, ena... — dedim. — Baqiraman! — shang'illadi onamiz. — O'lib ketsang, bola-baqrangni kim boqadi?! — Uf-f, ena... — Ha, **fotihangga borayin,** sendaychikin Matrosovni, fothaginangga borayin! — Ha endi, paxta uchun-da, Bolxin momo, paxta uchun, — dedi raisimiz (Otamdan qolgan dalalar, 92-b).

Yuqorida ta'kidlanganidek, subyekt tomonidan obyektga qarg'ish yo'llanar ekan, albatta, uning javobi ham bo'ladi. **Juvonmarg** so'zi fors-tojikcha bo'lib, yosh o'lgan, avji yetilgan paytida halok, nobud bo'lgan kabi ma'nolarni anglatadi.

Mening yoshimga yetolmayin **juvonmarg bo'lgin,** Alloh Akbar dedi. Iloyo, og'zingdan chiqib, yoqangga yopishsin, - dedi Barchin xola (Oydinda yurgan odamlar, 296-b).

Shunday kunlarning birida qarindoshi Qimmat xolaning qarg'ishi Oymomoning ko'ngliga juda og'ir botdi.

Mendayin bir begunoh momoni sochimning oqiga qaramay urgan bo'lsang, iloyo, **olamdan bepusht o'tgin!** (Oydinda yurgan odamlar, 97-b).

Garchi momo tomonidan to'g'ridan – to'g'ri farzanding bo'lmasin, bolang bo'lmasin deyilmasa-da, **bepusht o'tgin** deya qarg'ashi farzand dog'ida yonayotgan ayol uchun qanchalar dahshat ekanligini so'z bilan ifodalash qanchalar og'ir. Aytish mumkinki, davrlar o'tishi bilan evfemik ifodalangan tushunchalar ham odamga juda og'ir botishi mumkin ekan. Ahamiyatlisi shundaki, bunday olqishlardan kishi qandaydir kuch, ilhom, kayfiyat oladi, endi unga ishning og'irligi ham, yo'lning uzoqligi ham vahima emas.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, qadimgi xalqlar, xususan, tog' xalqlari nutqida qarg'ish vositalari nisbatan ko'proq, hozirgi adabiy tilda so'zlashuvchilar nutqida qisman saqlanib qolgan. Bu qarg'ish vositalari, uning evfemikasi tarixiy-etnografik hodisa sifatida Etnolingvistika, Sotsiolingvistika fanlari tomonidan maxsus o'rganilishi kerakligidan dalolat beradi. Boshqacha aytganda, har bir qarg'ish yoki olqish vositasi muayyan udum, rasm- rusum bilan bog'liq paydo bo'lganligidan, ularning ko'pchiligi bugungi til egalari uchun tushunarli emas yoki g'ayritabiiy bo'lib tuyuladi.

XULOSA. Evfemizm tabu so'zlar hamda aytilishi noqulay bo'lgan tushunchalar nomini yumshatib ifodalash ehtiyoji tufayli vujudga kelgan. Demak, evfemizmning paydo bo'lishi bir qator pragmatik omillarga bog'liq hodisa. So'zlovchi evfemizmdan foydalanishining asosiy stimuli – xushxulqlik.

Evfemizmlarni tadqiq etish xalqning mentalitetiga chuqur kirib borish, uning milliy madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari, axloqiy me'yorlari, til sohibining milliy xarakteri haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkoniyatini beradi. Muloqot jarayonida yuzaga chiqadigan tushunmovchiliklarning, qiyinchiliklarning oldini oladi, pragmatik to'siqlarni bartaraf etib, muloqotning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Badiiy matnning til xususiyatlari tekshirilayotganida undagi har bir hodisaga makon va zamon birligi tushunchasini hisobga olib yondashish kerak. Yozuvchi o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib shevaga xos so'zlarni ishlatadi. Tog'ay Murodning jonli xalq tilini chuqur bilishi uning urf-odatlarimiz bilan bog'liq evfemik birliklarni badiiy matnga mohirlik bilan olib kirishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahimov S. Surxondaryo o'zbek shevalari lug'ati. -T.: 1995. Z-8-b.
2. Omonturdiyev A.. O'zbek nutqining evfemik asoslari. -T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2000. 128-b.
3. Shoabdurahmonov Sh.. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari. –Toshkent. Fan, 1962. 202-205-b.
4. R. Sayfullayeva. B. Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: 2009-yil
5. Tog'ay Murod. Tanlangan asarlar.
6. Sharipov, F. G. (2021). Attitude to the plural affix in Uzbek language. Scientific reports of Bukhara State University, 5(1), 50-64.
7. Mahkamov, N., & Ermatov, I. (2013). TILSHUNOSLIK TERMINLARINING IZOHLI LUG'ATI. Toshkent: Fan Nashriyoti.
8. Axrorov, A. A. UDK: 811.512. 133 ROST VA YOLG'ON SO'ZLAMOQ HAQIDA XALQ MAQOLLARI SHARHI. ILMIIY AXBOROTNOMA, 57.
9. Khamrokulovna, T. Z. (2022). ON THE MORPHOLOGICAL STRUCTURE OF THE WORD IN THE UZBEK LANGUAGE.
10. Mamaraximov, S. (2022). MAQSAD MA'NOSINI IFODALOVCHI DASTLABKI VOSITALAR. Academic research in educational sciences, 3(7), 376-385.

QARAQALPAQ TILINDEGI SEMANTIKALIQ PRIMITIVLERDİN DISKURSTA SÁWLELENIWI

Kudaybergenova Sapiura Polatbaevna
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Annotaciya: Bul maqalada qaraqalpaq tilindegi sanawlı feyiller basqa feyiller menen birigip feyillerge ózine tán aspektual xarakteristika beredi, tuwındı yamasa jańa payda etilgen sóz semantikalıq tárepten bólinbeytuǵın bólekke aylanadı, júdá tar yaǵnıy mine usı mánide jumsalatuǵın til ónimi, feyili jaratılutugınlıǵın dálilleydi.

Tayanış sózler: semantikalıq primitivler, tuwındı yamasa jańa, frazalıq, stereotipik strukturalar, qaytalanbas, mánini qurıwshı, konceptual modeli, tiykarǵı faktori.

Biz qaraqalpaq tilindegi semantikalıq primitivlerdi úyrenip atırǵanda semantikalıq primitivler qatarında inglis tilinde joq ayırım qubılıslar haqqında aytıp ótpekshimiz. Qaraqalpaq tilindegi sanawlı feyiller basqa feyiller menen birigip feyillerge ózine tán aspektual xarakteristika beredi, tuwındı yamasa jańa payda etilgen sóz semantikalıq tárepten bólinbeytuǵın bólekke aylanadı, júdá tar yaǵnıy mine usı mánide jumsalatuǵın til ónimi, feyili jaratıladı. Bul nárse ingiz tilindegi do, make, get hám basqa feyiller menen jasalǵan frazalıq feyillerge uqsamasa da, olardan túp-tiykarınan pariǵ etedi, sebebi inglis tilindegi birinshi element (do, make, get hám taǵı basqalar) basqa jaǵdaylarda da óz mánisin saqlaydı hám qanday da stereotipik strukturalar jaratıladı. Qaraqalpaq tilinde bolsa mine sol stereotipizm baqlanbaydı hám hárbir tuwındı feyil unikal, qaytalanbas mánisti ańlatadı. Ayırım mısallardı kórip shıǵayıq.

Mısalı, «Beriw» feyili,

1. (ruchkanı) beriw (birinshi sózlik máni)
2. (ǵáp) beriw - 1. Sóz nábetin beriw
2. nábet penen otırıspaq beriw
3. (sóz) beriw - 1. wáde beriw, wáde etiw
2. wáde qılıw
3. qarar etiw
4. (tán) beriw - 1. qayıl qalıw
2. tán alıw
5. (soraw) beriw - 1. soraw

Bul mısallardı analizlese, ayırım qızıq jaǵdaylardı gúzetemiz.

1. Ayırım jaǵdaylarda primitiv mánini qurıwshı element baylanısqannan keyin sóz quramı pútkilley ózgerip ketiwi hám kerı máni bildiriwshı sóz járdeminde baslanǵısh, tuwrı, kútilip atırǵan máni ańlatılıwı múmkin. Mısalı - «beriw» feyilinen jasalǵan «tán beriw» (priznat) sóziniń sinonimi retinde berilgen «tán alıw» (priznat) sózinde «beriw»

sózińniń antonimi «alıw» komponent bolıp isletilgen. Biraq ulıwma máni ózgermegen hám «tán beriw», «tán alıw» sózleri túrli stillerde bir mánisti ańlatıwshı stilistik variantlar esaplanadı. Awızeki sóylesiwde «tán beriw» isletilse, jazba tilde «tán alıw» jumshaladı.

2. Barlıq sózlerde feyil óz leksikalıq sózlik mánisin az yamasa pútkilley joǵaltadı. «Beriw» elementi baslanǵısh semantikalıq strukturada: X beriw Y ge Z X gives Z to Y, konseptual modeli boyınsha kognitiv funkciyanı atqarıwı názerde tutılǵan. Bul modelde kópshilik jaǵdayda Y elementi kóbinese eksplikaciyalanbaydı.

Máselen,

	baslıqqa	
Azamat	dostına	jumıstan keshikpewge wáde berdi.
	hayalına	
X	Y	Z
Kim – Azamat		
kinge – Y		
ne – Z		

Biraq kópshilik kontekstlerde Y túsip qaldıladı. Azamat jumıstan keshikpewge wáde berdi. Bul jerde Y (kinge) elementi joq. Azamat wáde berdi. Kognitiv model X does Z. Biraq neni wáde etkeni ayılmadı. Eger biz bunı anıqlamaqshı bolsaq, onda N dı qosamız hám kognitiv modelimiz X does N to Z boladı.

Anıǵıraǵı Azamat kimgedur nenidur ne etdi. (yamasa orınladı)

Bul jerde «beriw» mánisi ulıwma joq bolıp ketti.

Yamasa «shep beriw» sózin alsaq, tuwındı máni «aman qalıw» bolıp, bul jerde «beriw» baslanǵısh máni yamasa primitivi keri mániste isletilingen, anıǵıraǵı «jan bermedi» «yaǵnıy ólimge shep berdi», «ólimnen ózin alıp qashtı», ólimge pánt berdi, ólimnen qasha bildi, soqqıdan qasha bildi degen mánisti alıp kirdi. Itibar bersek, «shep» sózińniń konseptual mazmunı insan sanasında unamsız, qollap- quwatlanbaǵan isháreket, túsiniq, halatlarǵa tiyisli boladı.

Mısalı:

«shep» qol – kúshsiz zveno, bólek,
 shepke júriw – nızamsız islerge aralasıw,
 shaqqan bolıw – negizi qolınan kelmeytuǵın isti kútilmegende orınlaw
 shebaqay – basqalarǵa uqsamaytuǵın adam
 ǵoshshaq – tiline artıqsha erk beriwge meyil adam

Semantikalıq primitivler insanlar tárepinen dúnyanıń tillik kórinisin jaratıwda baslanǵısh qural wazıypasın atqarıwshı dáslepki mazmunlı elementler esaplanadı. Bul zat semantikalıq primitivlerdiń dúnyanı kategorizaciyalawda ayqın kórinedi. Júdá hár túrli nárese hádiyselerge iye bolǵan dúnyanı logikalıq jaqtan sheklengen mániler járdeminde toparlastırıw zatlardı biliw hám olardı baslanǵısh, geyde ekilemshi ataw procesiniń tiykarǵı faktori bolıp tabıladı.

PAYDALANILGAN ÁDEBIYATLAR

1. Qaraqalpaq tiliniń 4 tomlıq túsindirme sózligi Nókis, – Qaraqalpaqstan, 1982. I tom, (A-V), 402 bet.
2. II tom, 1984 (G-K), 388 bet.
3. III tom, 1988 (K-N), 368 bet.
4. IV tom, 1992 (O-Ya), 635 bet.
5. Russha-qaraqalpaqsha sózlik –M., 1967, 832 bet. N.A.Baskakov redaktorlewinde.

INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH VA QARSHILIKNI BOSHQARISH

Sh.K.O`rinov,
BuxDU Musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrası o`qituvchisi
M.Rizoqulova,
BuxDU San`atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Innovatsiyalarni boshqarish – bu menejment sohasiga tegishli noaniq tushuncha bo`lib, uning obyektlari innovatsiya va innovatsion jarayondir. Qarshilikni boshqarish tashkilotning butun hayoti davomida qarshilikni kamaytirish uchun zarur choralarini ko`rishni o`z ichiga oladi.

Kalit so`zlar: innovatsion boshqaruv, innovatsion boshqaruv usullari, qarshilikni boshqarish.

Аннотация: Инновационный менеджмент – расплывчатое понятие, относящееся к области менеджмента, объектами которого являются инновации и инновационный процесс. Управление сопротивлением включает в себя принятие мер по снижению сопротивления на протяжении всей жизни организации.

Ключевые слова: инновационный менеджмент, инновационные методы управления, управление сопротивлением.

Annotatsion: Innovation management is a vague concept related to the field of management, the objects of which are innovation and the innovation process. Managing resistance involves taking steps to reduce resistance throughout the life of the organization.

Key words: innovative management, innovative management methods, resistance management.

Innovatsiyalarni boshqarish tashkilotning innovatsion tartib-qoidalarini boshqarish jarayonini va shuningdek, g'oyaning boshlang'ich bosqichidan uni muvaffaqiyatli amalga oshirishning yakuniy bosqichiga qadar bo`lgan jarayonlarni o`z ichiga oladi. U innovatsion strategiyani ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha qarorlar, faoliyat va amaliyotlarni qamrab oladi.

Gartner, IT-tadqiqot va konsalting kompaniyasiga ko'ra, innovatsiyalarni boshqarish – bu tashkilot ichida barqaror innovatsion jarayon yoki madaniyatni boshqarishga qaratilgan biznes intizomi. Ko'pincha, bu innovatsiyalarni boshqarish tashabbuslari biznesni o'zgartirish uchun o'zgartirishning buzuvchi usulidan foydalanadi.

Raqamli transformatsiya asrida tashkilotlar ko'proq innovatsiyalar kiritish zarurati bilan duch kelishmoqda. Innovatsiyalar biznes o'sishiga va tashkilotlarga raqobatchilardan oldinda bo'lishga yordam beradi. Innovatsiyalarni boshqarish yangi biznes modellarini yaratishga yordam beradi va o'zgaruvchan bozor uchun mo'ljallangan yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni yaratadi. Innovatsiyalarni to'g'ri boshqarish, shuningdek, mijozlar ehtiyojini qondirish va xodimlarning faolligini oshiradi.

Innovatsiyalarni boshqarish usullari:

Umuman olganda, innovatsiya bosqichma-bosqich, yutuqli yoki buzuvchi bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha: korxonalar doimiy ravishda o'zlarini qayta ixtiro qilishlari kerak bo'lgan davrda, qo'shimcha innovatsiyalar doimiy ravishda mavjud mahsulotlar, xizmatlar, jarayonlar yoki usullarni takomillashtirish orqali ularning rivojlanishiga yordam beradi.

Yutuq: Yutuqli innovatsiya deganda, mahsulot yoki xizmat darajasini raqobatchilardan oldinda bo'lgan toifalar doirasida oshirish mumkin bo'lgan texnologik yutuqlar tushuniladi.

Buzuvchi: Buzg'unchi innovatsiyalar □ bu amalga oshirilgandan so'ng bozor xatti-harakatlarini tubdan o'zgartirishga qodir bo'lgan g'oyalalar.

Innovatsiyalarni boshqarishda muvaffaqiyatga erishish.

Innovatsiyalarni boshqarish jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi uchun kompaniya innovatsion madaniyatni qo'llab-quvvatlashi va xodimlarning o'zini qadrli ekanligini his qilishi kerak. Bu xodimlarni sifatli g'oyalarni ishlab chiqarishga undaydi.

Tashkilotlar bugungi kunda fikr-mulohazalarni olish uchun ijtimoiy tarmoq kabi hamkorlik texnologiyasidan foydalanmoqda, bu esa kompaniya ichida va tashqarisida manfaatdor tomonlardan doimiy g'oyalalar oqimini yaratishga yordam beradi.

Innovatsiyalarni boshqarishni biznesning muntazam qismiga aylantirish uchun ko'plab tashkilotlar tartibli yondashuvga amal qiladilar. G'oya innovatsiyalar uchun birinchi qadam bo'lib, rag'batlantirish va fikr-mulohazalar doimiy g'oyalalar oqimini rag'batlantirishga yordam beradi. Yaxshi boshqariladigan innovatsion jarayonning keyingi bosqichi eng qimmatli va hayotiy g'oyalarni aniqlashdan iborat. Keyinchalik kompaniyalar qisqa ro'yxatga kiritilgan g'oyalalar asosida prototip mahsulotlarini yaratish va ularning qanday ishlashini ko'rish uchun, ularni amalga oshirish uchun oldinga siljishi mumkin. To'liq amalga oshirishning yakuniy bosqichida g'oyalalar amalga oshirilgandan so'ng istalgan biznes maqsadlariga erishilganligini ko'rish uchun natijani baholash muhimdir. Yaratilgan g'oyalalar biznes maqsadlariga mos kelishiga ishonch hosil qilish uchun C-to'plamini innovatsiyalarni boshqarish bo'yicha muhokamaga jalb qilish kerak. Tashkilotlar, shuningdek, innovatsiyalarni boshqarish va innovatsiyalarni boshqarish jarayonini nazorat qilish uchun maxsus ko'nikmalarga ega bo'lgan innovatsion menejerlarni tobora ko'proq qidirmoqda.

Biznes va inson resurslari kontekstida "qarshilikni boshqarish" atamasi xodimlarning tashkilot ichidagi o'zgarishlarga bo'lgan munosabatini shakllantirishni anglatadi. Ushbu turdagi boshqaruvning maqsadi yangi jarayonlarni, texnologiyani yoki ish joyi madaniyatini minimal ishqalanish bilan qabul qilishni osonlashtirishdan iborat. Deyarli har qanday tashkilotdagi ishchilar o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishga moyil bo'lishadi. Ayniqsa bu holat ular majburlanganligini his qilganlarida namoyon bo'ladi.

O'zgarishlar, odatda, yangi muammolarni keltirib chiqaradi va dastlab noqulay bo'lishi mumkin. Shuning uchun ko'pgina tashkiliy o'zgarishlardan keyin tabiiy qarshilik kutiladi. Biroq, tashkilot rahbarlari va psixologlari qarshilik manbasini yetarli darajada hal qilishdan oldin tushunishlari kerak bo'ladi. Tashkilot ichidagi rahbarlarga o'zgarishlar davrida xodimlar bilan tez-tez muloqot qilish va ularga bu borada o'z fikrlarini bildirish imkoniyatini berish tavsiya etiladi. Ba'zi kompaniyalar jarayonni yanada osonlashtirish uchun o'zgarishlar menejerlarini targ'ib qiladi yoki yollaydi.

Xulosa qilib aytganda, innovatsiyalarni boshqarish yangi narsalarni o'ylab topish, joriy etish va biznesni ma'lum tarzda rivojlantirish jarayonidir. Va eng asosiysi yaratilgan g'oyalar insoniyatga zarar emas aksincha foyda va qulaylik keltirmog'i lozimdir.

Qarshilikni boshqarish – tashkilot, uning rahbarining xodimlar tomonidan ro'y berishi mumkin bo'lgan noroziliklarni oldini olishi va bartaraf etish chora-tadbirlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Urinov S. K., Rakhmatova M. THE ROLE OF CULTURE AND ART OF UZBEKISTAN ON A GLOBAL SCALE //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 370-376.
2. Orinov S. K., Qodirova V. NOMODDIY-MADANIY MEROSNI O'RGANISHDA "AVESTO" NING O'RNINI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 83-86.
3. Orinov S. K., Boboqulova S. MADANIYAT VA SAN'AT BOSHQARUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 78-82.
4. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI AHOLINING IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRUVCHI OBYEKT SIFATIDA //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 68-72.
5. Orinov S. K., Abdusalomova H. TEATRLAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 766-770.
6. Orinov S. K. et al. MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATIDA AHOLINING TURLI QATLAMLARIGA DIFFERENSIAL YONDASHUV //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 73-77.
7. O'rinov S. K., Abduraxmonova X. MADANIYAT VA SAN'AT SOHASIDAGI BOSHQARUVNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //PEDAGOG. – 2023. – T. 1. – №. 5. – C. 226-231.
8. Druker, Ferdinand. Biznes va innovatsiya— 2007.
9. R. I. Gimush, F. M. Matmurodov. "Innovatsion menejment". Toshkent-2008.
10. G. Taraxtiyeva. "Innovatsion menejment". Toshkent-2013.
11. A. B. Surin, O. P. Molchanova "Innovatsion boshqaruv". —2008.

XORAZM VOHASI OILAVIY MAROSIMLARI

Xayrullaeva Dilafruz Azamat qizi – Urganch Davlat universiteti

Magistratura bo‘limi Tarixshunoslik, manbashunoslik,

tarixiy tadqiqot usullari yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

e-mail: dxayrullayeva4@gmail.com, tel: +998942399208

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorazm o‘zbeklari oilaviy marosimlari mavzusining XX asrdagi manba va adabiyotlarda yoritilishi tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Oilaviy marosimlar, nikoh to‘yi, milliy marosimlar, rasm-rusmlar, qadriyatlar, urf-odatlar, an‘analar, ishonch-e‘tiqod, tarixshunoslik, etnografik tadqiqotlar.

Аннотация: В данной статье анализируется освещение семейных обрядов хорезмских узбеков в источниках и литературе XX века.

Поддерживаемые концепции: Свадьба, суеверие, национальные обряды, ценности, обычаи и традиции, уверенность, убежденность, магия, колдовство, опыт.

Annotation: This article analyzes the coverage of family rituals of the Khorezm Uzbeks in the sources and literature of the twentieth century.

Supported conceptions: Wedding, superstition, national ceremonies, values, customs and traditions, confidence, conviction, magic, witchcraft, experience.

Ma‘lumki, ijtimoiy madaniy hayotni bayramlar bilan uzviy bo‘lgan an‘ana, urf-odat va marosimlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ular turmushning alohida shakli hamda bayramning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

Marosim-bu ko‘pincha an‘ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo‘lib inson hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ruhiy ko‘tarinkilik vaziyatida o‘tadigan, o‘zining umum qabul qilingan ramziy harakatlariga ega bo‘lgan hayotiy tadbir. Masalan ism qo‘yish marosimi, nikohdan o‘tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotiralash marosimi, urug‘ qadash marosimi, Xorazm vohasidagi oilaviy marosimlar tarixiga oid manbalarni tahlil qilish jarayonida XX asrda amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlar va bu sohadagi ilmiy adabiyotlarni ham ko‘rsatib o‘tish mumkin. Bu davrda amalga oshirilgan ilmiy nashrlar yangi nazariy-metodologik yo‘nalishlari, turli-tuman va keng mavzularda bajarilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur adabiyotlarda oilaviy marosimlarning nazariy metodologik jihatlari o‘rganilgan va to‘plangan boy ma‘lumotlar yanada chuqurlashtirilgan holda tadqiq qilingan.

Xorazm vohasidagi oilaviy marosimlar tarixiga oid manbalarni tahlil qilish jarayonida XX asrda amalga oshirilgan bir qator tadqiqotlar va bu sohadagi ilmiy adabiyotlarni ham ko'rsatib o'tish mumkin. Bu davrda amalga oshirilgan ilmiy nashrlar yangi nazariy-metodologik yo'nalishlari, turli-tuman va keng mavzularda bajarilganligi bilan ajralib turadi. Mazkur adabiyotlarda oilaviy marosimlarning nazariy metodologik jihatlari o'rganilgan va to'plangan boy ma'lumotlar yanada chuqurlashtirilgan holda tadqiq qilingan.

Xorazmdagi oilaviy marosimlar tarixiga oid XX asrda yaratilgan manbalar va tadqiqotlarni xronologik jihatdan quyidagi davrlarga bo'lib o'rganish mumkin:

I. XX asr boshlari rus va xorijiy mualliflar tadqiqotlari.

II. Sovetlar davri tadqiqotlari ma'lumotlari (1917-1991 yillar).

III. 1991 yildan keyingi xorijda va O'zbekistonda nashr qilingan ilmiy adabiyotlar va tadqiqotlar.

XX asr boshlarida Xorazm vohasi o'zbeklari oilaviy marosimlarini o'rganish borasida V.V. Bartold, E. S.Vulfson, S.F. Oldenburg va K. Inostransev, M.S. Andreevlar tomonidan rus tilida qator e'tiborga sazovor ishlar chop etilgan. Ammo, bu davrda amalga oshirilgan va Markaziy Osiyo, jumladan, Xorazm, Toshkent vohalari hamda Zarafshon, Farg'ona vodiylari aholisi oilaviy marosimlari, an'anaviy va zamonaviy urf-odatlariga bag'ishlangan etnografik tadqiqotlardagi asosiy masalalar kommunistik mafkura nuqtai nazaridan talqin etilgan. Jumladan, 1921 yilda M.S.Andreev rahbarligida yirik sharqshunos va etnograf olimlardan iborat "Turkiston mahalliy aholisining maishiy turmushini o'rganish" ilmiy guruhi tashkil etilgan. Bu guruh tomonidan tadqiqiy dasturga kiritilgan o'lka aholisining an'ana, urf-odat va marosimlari va diniy e'tiqodlari va boshqa ko'plab masalalardagi noyob etnografik ma'lumotlar yig'ilib nashr etilgan [1, 163-179].

Xorazm vohasi oilaviy marosimlari mavzusi ayniqsa, 1936 yilda tashkil qilingan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining faoliyati davomida keng miqyosda va ilmiy jihatdan tadqiq qilindi. Ekspeditsiya a'zolari S.P.Tolstov, M.A.Itina, T.A.Jdanko, N.P.Lobacheva, K.L.Zadixina, G.P.Snesarev, V.M.Sazonova, YU.A.Rapoport, O.A.Vishnevskaya hamda S.I.Polyakov, E.G. Kagarovlarning asarlari shular jumlasidandir.

Bular ichida ayniqsa, N.P.Lobacheva, P. G. Snesev, K.L.Zadixina va V.M.Sazonovalarning tadqiqotlari biz tadqiq qilayotgan mavzuga oid eng asosiy adabiyotlar sirasiga kiradi. Xususan, N.P.Lobacheva sunnat to'yi marosimini tahlil qilar ekan: "Butun sunnat to'yi marosimlarini o'tkazish tartibini kuzatar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi kunga kelib u juda o'zgargan. Sunnat to'yi marosimining ko'p qismlari yo'qolgan, hatto marosim tarkibiga zamonaviy elementlar ham qo'shilgan", – deb yozadi va endi sunnat to'ylari ilgarigidek jamiyat emas, balki oila vakolatida ekanligini va bu narsa uning ijtimoiy ahamiyati torayganini bildirishini ta'kidlab o'tadi [2, 38]. O'zbeklarning an'anaviy marosimlarini o'rgangan N.P.Lobacheva O'rta Osiyo xalqlari oilaviy marosimlarini o'rganish va tahlil etish

bilan birga, sovet davrida yuzaga kelgan marosimlarni ijobiy deb ta'riflaydi va o'z ishlarida keng targ'ib qiladi. Mazkur tadqiqotlar olimaning uzoq yillar olib borgan tadqiqotlari samarasidir.

Qadimiy diniy e'tiqodlarning ko'rinishlarini Xorazm misolida o'rgangan G. P. Snesevning shu sohadagi fundamental asari [Snesev, 336 s] oilaviy marosimlarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Muallif ushbu asarida Xorazm o'zbeklari hayotidagi demonologik ko'rinishlar hamda shomonlik, magiya-afsungarlik, totemizm, zardushtiylik kabi qadimiy diniy e'tiqod izlarini mintaqa aholisi oilaviy marosimlarida namoyon bo'lishi muammosini ilmiy asosda tadqiq etgan. Xususan, G.P. Snesevning ma'lumotiga ko'ra, Xorazmda go'shangaga chiroq yoqib olib chiqish udumi saqlangan va lampani aravada juda avaylashgan. Negaki yo'lda u o'chib qolsa, bu katta baxtsizlikdan darak bergan. Ammo, Snesevda ma'lumotlarni ozroq bo'rttirish va hamma narsani ko'proq sehr-jodu bilan bog'lash ko'zga tashlanadi. CHiroqni o'chirmaslik deganda, ataylab o'chirmaslik nazarda tutiladi, shamolda o'chsa, boshqatdan yoqib qo'yilaveradi va buni hech qanday yomonlikka yo'yishmaydi. Kuyovning xonadonida ham bu chiroq uch kun mobaynida kecha-kunduz yonib turadi [3, 78]. SHunday qilinsa, kelin-kuyov oilasining chirog'i sirayam o'chmaydi, deb yaxshi niyat qiladilar.

Shu o'rinda M.A. Bikjanova, O.A. Suxareva, A.F. Monogorova, T.X. Tashbaeva va M.D. Savurov, kabi olimlarning ishlari katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tmoq lozim. Bu tadqiqotchilarning xizmatlari shundaki, ular oilaviy marosimlarning an'anaviy shakllarini birinchilardan bo'lib ko'rsatib beribgina qolmasdan, bu muammolarni o'rganish usullarini ham yaratdilar. O'zbeklarning an'anaviy urf-odat va marosimlarini o'rganishda O.A.Suxarevaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga egadir [4, 118-131]. Etnograf olimaning asarlari o'zbeklarning oilaviy marosimlari va u bilan bog'liq urf-odatlarini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining oila va marosimlari bo'yicha bir qator tadqiqotlar qilingan bo'lib, ular orasida N.A.Kislyakovning ishlari alohida o'rin tutadi. N.A.Kislyakov o'z asarlarida katta patriarxal oilalarning parchalanish jarayonini o'troq va yarim o'troq aholi misolida qiyosiy tahlil etib, oilaviy marosimlar xususida juda qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan [5, 240].

O'rta Osiyo va Qozog'iston halqlari turmush madaniyatini o'rgangan S.M.Abramzon tadqiqotlarida ham turkiy xalqlarning oilaviy turmush tarzi va to'y marosimlari chuqur tadqiq etilgan [6, 44-67]. Bu yirik ilmiy tadqiqotlar bugungi kunda ham o'zining qimmati va ilmiy ahamiyatini saqlab qolgan nashrlar jumlasiga kiradi.

Mazkur muammolarni nazariy va ilmiy tadqiq etgan olimlardan K.SH. SHoniyozov asarlari alohida ahamiyatga ega. O'zbeklarning etnik tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganishdan tashqari olim oila va marosimlar xususida ham bir qancha ishlarni amalga oshiradi. Muallif, o'zbek xalqining marosim va an'alarini o'rganishni qipchoqlar va qarluqlar misolida yoritgan [7, 195].

Xorazm vohasi oilaviy marosimlari T. Qilichev [8, 184] va H.Ismoilov [9, 53] lar tomonidan etnografik jihatdan ham ma'lum darajada o'rganilgan. Xususan, To'ra Qilichevning bu davrdagi tadqiqotlari shaxsiy kuzatuvga asoslangan katta ko'lamdagi va noyob

materiallarning mavjudligi bilan diqqatga sazovor bo‘lib, oilaviy marosimlarni va ular bilan bog‘liq rasm-rusumlarni o‘rganishda o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning Xorazm xalq teatri asarida oilaviy marosimlarda bajariladigan urf-odatlar ham teatrlashtirilgan tomosha sifatida quyidagicha bayon etiladi: “Xorazm xalqining o‘g‘il uylantirish to‘yi marosimida “Sovchilikka borish”, “Fotiha to‘yi”, “Qiz uzatuv”, “Kelin tushiruv to‘yi” kabi sahna harakatini gavdalanitiradigan traditsiyalari bor” [9, 150].

Umuman, o‘rganilayotgan muammoning XX asrda yoritilishi darajasini tahlil qilar ekanmiz, shu narsaga amin bo‘ldikki, bu davrda oilaviy marosimlarga oid qator e’tiborga molik ishlar amalga oshirilgan. Biroq, aynan shu davrda chuqur ilmiy asosga ega tadqiqotlar bilan birga sotsialistik mafkuraga xizmat qiluvchi tadqiqot ishlari ham paydo bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Snasarev G.P. Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlar. - Urganch, 2018.
2. Kilichev T. Xorazm xalq teatri. Toshkent, 1988.
3. Ismoilov H. An’anaviy o‘zbek kiyimlari (XIX asr oxiri – XX asr boshi). – T.: Fan, 1979.
4. Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандскую область 1921 // Известия Туркестанского отдела РГО. Т. XVIII/ 1921.
5. Н.П.Лобачева, Л.А.Тулъцева Традиции в современной обрядности узбеков; Ўша муаллиф. Значение общины в жизни семьи (по материалам свадебной обрядности хорезмских узбеков) // Этническая история и традиционная культура народов Средней Азии и Казахстана. Нукус, 1989; Ўша муаллиф. Древние социальные институты в жизни современной семья народов Средней Азии // Семья. Традиции и современность. – М., 1990.
6. Снесарев Г.П. Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. - Урганч, 2018.
7. Сухарева О.А. Традиция семейно-родственных браков у народов Средней Азии (в порядке дискуссии) // Семья и семейные обряды у народов Средней Азии и Казахстана. – М.: Наука, 1978.

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH VA ELEKTRON BANKLAR

Qambarov Bahodir Inomovich

**Farg'ona viloyati Rishton tumani Iqtisodiy taraqqiyot
va kambag'allikni qisqartirish bo'limi bosh mutaxassisi**

Annotatsiya: Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining faoliyati foyda olishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bozor iqtisodi sharoitida bank foydasining iqtisodiy mohiyatidangicha ijtimoiy iqtisodiy tus olib bormoqda, chunki tijorat banklarining foydasi bank kapitali to'planishining va bankning rivojlanishining asosiy manbaidir..

Kalit so'zlar: davlat, bank, tadbirkorlik, hizmat, pul, foyda, ish, O'zbekiston, yoshlar, mustaqillik

Аннотация: В условиях рыночной экономики деятельность коммерческих банков направлена на получение прибыли. В условиях рыночной экономики экономическая сущность прибыли банка приобретает новый социально-экономический аспект, поскольку прибыль коммерческих банков является основным источником накопления банковского капитала и развития банка.

Ключевые слова: государство, банк, предпринимательство, служба, деньги, прибыль, работа, Узбекистан, молодежь, независимость

Abstract: In the conditions of the market economy, the activity of commercial banks is directed to profit. In the conditions of the market economy, the economic essence of the bank's profit has a new socio-economic aspect, because the profit of commercial banks is the main source of the accumulation of bank capital and the development of the bank.

Keywords: state, bank, entrepreneurship, service, money, profit, work, Uzbekistan, youth, independence

Azaldan yurtimiz o'zining bolajonligi, yoshlarning kamoloti barcha davrlarda ustuvor bo'lib kelgani bilan ajralib turadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyo aholisining 16 foizini yoshlar tashkil qilmoqda. Yurtimizda esa bu ko'rsatkich e'tirof etsa arzigulik – aholining 60 foizdan oshiq qatlami kelajagimiz davomchilari hissasiga to'g'ri keladi. Shu ma'noda ham, O'zbekistonni yoshlar mamlakati, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda ularning iqtisodiy mustaqillikka erishishlari va hayotda o'z o'rinlarini topib ketishlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining rivojlanishii eng asosiy omil va manba bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me'yoriy asolarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kam sarmoya talab qiladigan, tez modernizatsiya qilinadigan va bozor konyukturasining o'zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha oladigan biznes yuritish zamon talabiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi. Kichik biznes bozorni zarur tovar va

xizmatlar bilan to'ldiradigan, iqtisodiyotni tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi.

Yurtimizda tadbirkorlik azaldan xalqimiz uchun xos bo'lgan va jamiyatda yuksak qadrlangan. Xususan, Amir Temur o'z saltanatida tadbirkorlar, shijoatli insonlarnig'oyat qadrlagan: "Tajribamda ko'rilganki, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, jang ko'rgan, mard, shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish buyuradi." Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g'oyalari amalga oshirishga har tomonlama ko'maklashish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g'oyalari va loyihalari ro'yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta'minlanishiga zamin yaratilmoqda. Aholining mehnat orqali daromad topishga bo'lgan qiziqishini keskin oshirish, ayniqsa muhtoj oilalarning hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyatini, shuningdek, hududlarda foydalanilmayotgan binolarda ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni, aholi tomorqalari va bo'sh ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish bilan bog'liq loyihalarni imtiyozli shartlarda moliyalashtirishni tizimli ravishda davom ettirishni taqozo etmoqda. Respublika hududlarida aholining daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanishiga, oilaviy tadbirkorlik rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashish va mazkur yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning o'zni beqiyos. Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) Hisob varaqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda. O'z navbatida, korxonalar va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf etish va to'lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi.

Masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatish turli bank operatsiyalarini masofadan amalga oshirish imkoniyatini beradigan xizmatlar kompleksidir. Buning uchun bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib kompyuter yoki mobil telefondan foydalanish kifoya. Masofaviy texnologiyalar mijozga bank xizmatlaridan foydalanishda maksimal qulaylik va bank bilan ishlash jarayonida vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni minimallashtirish imkonini beradi.

Masofadan xizmat ko'rsatish tizimi mijozlarga taqdim etilayotgan xizmatlarning xarakteriga ko'ra ikki turga bo'lish mumkin:

- informatsion;
- tranzaksion.

Informatsion banking mijozlarga moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etishga yo'naltirilgan bo'lsa, tranzaksion banking moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Masofaviy bank xizmatlarining asosiy tamoyili mijoz va bank o'rtasida turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan mazkur amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarining turlari:

Bank-Mijoz – bu kompyuter orqali amalga oshiriladigan tizim bo'lib, bunda mijozning kompyuteriga maxsus dastur o'rnatiladi. Ushbu dastur kompyuterda barcha mijoz ma'lumotlarni saqlaydi (asosan to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardankochirmalar). Bank va mijozning kompyuteri o'rtasida modem orqali to'g'ridan-to'g'ri aloqa amalga oshiriladi.

Internet-banking – bu mijozlarning depozit hisobvaraqlarini, jumladan bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlarini, internet orqali boshqarish huquqini beruvchi tizimdir. Bu xizmat turi mijozning masofadan bank bilan bog'langan holda real vaqt davomida to'lovlarni o'tkazish uchun mo'ljallangan tizimdir. Foydalanuvchi tizimga veb-brauzer orqali qiradi. Internet-banking tizimi bankning veb-serverida joylashtiriladi. Foydalanuvchi bankning veb-saytida barcha o'z ma'lumotlari (to'lov hujjatlari va hisobvaraqlardan kochirmalar)ni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega.

Internet-banking xizmati orqali mijoz o'z ish joyida yoki boshqa o'ziga qulay sharoitda:

- to'lovlarni o'tkazish;
- to'lov o'tishi bosqichlarini kuzatish;

barcha hisobotlarni olish kabi amaliyotlaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyatini yaratadi. Internet-banking orqali mijoz o'z ish joyidan internet orqali bank saytiga ulanib, o'z hisob raqamiga tushayotgan pullarni ko'rishi va pul o'tkazmalarini tayyorlab bankka uzatishi mumkin bo'ladi.

Mobil banking tizimi internet-banking texnologiyasi asosida yaratiladi. SMS-banking – bu bank mijozlarga ularning depozit hisobvaraqlaridagi hamda bank kartalariga ochilgan hisobvaraqlaridagi operatsiyalar haqida SMS ko'rinishdagi ma'lumotlarni olish tizimidir. Hisobvarag'idan ma'lumot olish uchun mijoz bankning maxsus telefon raqamiga belgilangan SMS-so'rovni yuborish kerak.

Mijoz uchun SMS-banking xizmati quyidagi amallarni bajarish imkoniyatlarini beriladi: hisobvarag'iga kelib tushgan mablag'lar;

- hisobvarag'idan qilingan xarajatlar;
- hisobvaraq balansi;

kun davomida o'tkazilgan bank operatsiyalari haqida operativ ma'lumot olish.

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlar faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida ularga ko'rsatiladigan bank xizmatlari ko'lamini yanada kengaytirish, ayniqsa, ajratiladigan kreditlar hajmini ko'paytirish zamon talabi bo'lib qoldi. Bu esa kichik biznes va

xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish, ularga ko'rsatiladigan moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishni taqozo etadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. T. "O'zbekiston", 2000 yil
2. A.O'lmasov, M.Sharifxo'jayev, Iqtisodiyot nazariyasi, "Mehnat", 1995 yil
3. A.O'lmasov Iqtisodiyot asoslari, T. "Mehnat", 2007 yil
4. YO.Abdullayev, T.Qoraliyev, Pul T. "Mehnat" 2008 yil
5. YO.Abdullayev, T. Boboqulov, Kredit T. "Mehnat", 2008 yil
6. YO.Abdullayev, Sh.Shoha'zamiy, Qimmatli qog'ozlar. T. "Mehnat", 2009 yil
7. SH.Abdullayeva, Pul va pul tizimi. T. "O'qituvchi", 1997 yil
8. SH.Abdullayeva, Pul, Kredit va banklar T. "Moliya", 2007 yil
9. F. Mullajonov «O'zbekiston Respublikasi bank tizimi» T. "O'zbekiston" 2001 yil
10. Abdullayeva Sh. Pul, kredit va banklar. T.: "Moliya" nashriyoti, 2008y.

BOSHQARUVDA GENDER TENGLIK MASALALARI

Qambarova Gulmira Baxtiyorovna

Farg'ona viloyati IIB TQX Jinoyat qidiruv boshqarmasi

Odam savdosiga qarshi kurashish bo'limi katta tezkor vakili mayor

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror rivojlanish va inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lgan "gender tengligi" tushunchasi, zamonaviy ilmiy paradigma kontekstida hamda XXI asr kompetensiyalari tizimida gender sensitivlik, tamaddunlar konvergentsiyasi sharoitida gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish muammolari tahlil qilingan. Shuningdek, maqoladan davlat xizmati tizimi rahbar va mutaxassislarining gender sensitivlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari hamda sohani takomillashtirishga oid takliflar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, barqaror rivojlanish, gender tengligi, gender sensitivlik, tender assimetriyasi, tamaddunlar konvergentsiyasi, XXI asr kompetensiyalari, ilmiy paradigma, zamonaviy menejment, rahbarning muhim kompetensiyalari.

Abstract. The article examines: the concept of "gender equality" as an integral part of sustainable development and human rights; gender sensitivity in the context of the modern scientific paradigm and in the competence system of the XXI century; issues of gender equality and the empowerment of women in the context of the convergence of civilizations. Problems of developing the competence of gender sensitivity of managers and specialists of the civil service are also analyzed, made proposals for improving the industry.

Key words: human rights, sustainable development, gender equality, gender sensitivity, gender asymmetry, convergence of civilizations, competencies of the XXI century, scientific paradigm, modern management, important leadership competencies

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog'i: erkaklar va ayollar o'rtasidagi tenglik — bu oilada erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlar. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi — bu patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. O'zbekistonda gender tengligi. O'zbekiston gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatida 2019-yildan boshlab qatnashishni boshladi. 2019-yil holati bo'yicha O'zbekistonning gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxatdagi 189 mamlakat ichida 62-o'rinni egalladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA) ekspertlarining fikriga ko'ra, O'zbekistondagi har 100 000 dan 29 ayol gender tengsizlik tufayli vafot etishi va 15-19 yoshdagi har ming o'spirin qiz uchun tug'ish ko'rsatkichi 23,8 ni tashkil qiladi. Gender tengligi ko'rsatkichi ro'yxati bo'yicha 62-o'rinda O'zbekiston bilan bir qatorda Kosta Rika va Urugvay ham 0,288 ko'rsatkichi bilan qayd etilgan. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida Qozog'iston 44-chi, Qirg'iziston 82-chi,

Tojikiston 70- chi o‘rinlarni egallashgan, Turkmanistonda esa bu haqida ro‘yxatda hech qanday ma‘lumot ko‘rsatilmagan. O‘zbekistonda 2019-yil 2-sentabrda 562-sonli O‘zbekiston Respublikasi „Xotin- qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida“gi Qonuni qabul qilingan. O‘zbekistonda Gender tenglik bo‘yicha Komissiya 2019-yildan boshlab ish yuritib keladi. Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva O‘zbekiston Respublikasi Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasining raisi hisoblanadi.

Ayollar huquqlarini ta‘minlash sohasida turli mamlakatlarda bo‘lgani kabi, mamlakatimizda ham bugungi kunda dolzarb masalalardan biri sifatida e‘tirof etilayotgan gender tengligi – turli jins vakillarining, davlat va jamiyat boshqaruvi ishlarida ishtirok etish, iqtisodiy va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanish, mehnatga teng, haq olish va shu kabi masalalarda teng huquqli bo‘lishini anglatadi.

Gender tengligi masalasini hal etish jamiyat uchun ayollar huquqlarini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki jamiyat, turmushning barcha sohalarida, ya‘ni iqtisodiyotda, siyosatda, ijtimoiy hayotda jamiyat barcha a‘zolarining teng imkoniyatlari, shu jumladan, ayollarning erkaklar bilan teng imkoniyatlari ta‘minlab berilmas ekan, mazkur jamiyatda ayollar huquqlarini ta‘minlashga oid vazifalarni ijobiy hal etib bo‘lmaydi. Xotin-qizlar huquqlari uchun javobgarlikni va javobgarlar doirasini belgilash uchun bir tomonlama feministik yondashuvdan yiroqlashib, gender tengligi mezonlaridan foydalanish lozim. Tenglik inson huquqlarining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, unga ko‘ra, davlat o‘z hududida yashaydigan har bir insonning qonun oldidagi tengligini ta‘minlashi kerak. Gender tengligi erkaklar va xotin-qizlarning nafaqat jamiyatdagi ijtimoiy roli va imkoniyatlarining tengligini, balki, birinchi navbatda, ularning jamiyat a‘zolari, fuqarolari, yashovchilari sifatida davlat oldidagi teng liklarini nazarda tutadi. Davlat odamlarga ularning jinsiy mansubligiga qarab munosabatda bo‘lmasligi kerak, bunday huquqqa ega emas. Bundan tashqari, davlat jamiyatda, uning vakillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda muayyan jinsni kamsitadigan odat va an‘analarga rioya etilishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak

Zamon davlatdan barcha vazifalar va harakatlarga gender yondashuvini singdirishni talab qiladi. Bunday yondashuvning uslubi — hayotning turli sohalarini gender bo‘yicha tahlil qilishdan iboratdir. Bu uslub jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida turli davlat dasturlari, qonunchilik yoki siyosiy kursning xotin-qizlar va erkaklar turmushiga ta‘sirini baholash imkonini beradi.

Jinslar tengligi tushunchasini to‘liq ochib berishga monelik qiladigan to‘siqlarning mavjudligiga quyidagilar asosiy sabab bo‘ladi:

1.Asosiy e‘tibor jinslarning de-yure tengligiga qaratiladi va bu esa xotin-qizlarni har doim ham kamsitishning barcha shakllaridan ham samarali himoya qila olmaydi. Qonunchilik aktlarini ishlab chiqish jarayonida ko‘pincha jamiyat faoliyatining umumiy jihatlari hisobga olinmaydi;

2.Xotin-qizlar qo‘mitalari o‘z vazifalarini amalga oshirishda belgilangan maqsadlarga erishish imkonini bera olmaydigan tuzilmalar doirasida faoliyat ko‘rsatadilar. Bu qo‘mitalar yuqori darajadagi davlat xizmatchilari tomonidan boshqarilib, nomenklatura bilan uzviy aloqada

bo'lsada, ularning faoliyati va vakolatlari muayyan ma'noda cheklangandir. Fuqarolar hayotiga oid qarorlar qabul qilish sohasidagi ta'siri me'yorlangan.

3.Xotin-qizlarning qarorlar qabul qilishdagi ishtiroki etarlicha emas, jinslar o'rtasidagi tenglikni ilgari surish muammosi hali saqlanib qolmoqda. Ko'rilayotgan choralarning ko'pchiligi asosan xotin-qizlarning o'ziga xos ehtiyojlariga qaratilib, tengsizlikni keltirib chiqarayotgan qator sabablarni chetlab o'tmoqda.

SHuning uchun ham xalqaro maydonda ayollar huquqlarini himoya qilish maqsadida, keyingi yarim asr mobaynida turli xalqaro anjumanlar o'tkazilib, ayollar huquqlariga oid muammolar o'rganilmoqda, ayollarning jamiyatdagi ishtirokini yanada kengroq ta'minlash hamda ularning barcha huquqlariga amal qilishga qaratilgan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Ana shunday taklif va tavsiyalar asosida, bajarishi lozim bo'lgan xalqaro shartnomalar tayyorlanib, davlatlar tomonidan imzolanmoqda. Bularga 1967 yilgi Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya, 1979 yilgi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya

Hozirgi kunda davlatlar o'z qonun hujjatlarida kishilarning qandaydir asoslar bo'yicha kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik prinsipini mustahkamlashga harakat qiladilar. O'zbekiston Respublikasida qonunchilikni takomillashtirishning butun jarayoni mana shu prinsipga asoslangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yuqorida qayd etilganidek, barcha fuqarolarning tengligi belgilab qo'yilganligini, Konstitutsiyaning 18, 46, 63, 64, 65, 66-moddalari bilan bevosita ayollar huquqlarining konstitutsiyaviy kafolati mustahkamlanganligini, xalqaro hujjatlarda bo'lgani kabi, ichki qonunchilikda ham jins belgisi bo'yicha kamsitmaslik to'g'risidagi qoida birinchi o'ringa chiqarilganligini ta'kidlash o'rinlidir.

O'zbek zaminida qadim-qadimdan ayollar hamisha e'zozlab kelingan. Ularga oilani ham, jamiyatni ham birlashtirib, fayz kiritadigan, xonadonlarni mehr-muhabbat, nafosat, ezgulik nuri bilan munavvar qiladigan muqaddas zot, deb qaralgan. Mustaqillikka erishilgandan keyin ham ushbu analarga sodiq qolgan holda, bu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekistonda 1998 yilning «O'ila yili», 1999 yilning «Ayollar yili», 2001 yilning «Ona va bola yili», 2012 yilning «Mustahkam oila yili», 2014 yilning «Sog'lom bola yili», 2016 yilning «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinib, maxsus Davlat dasturlarining qabul qilinishi mamlakatimizda bu borada aniq maqsadga ega

Ayollarning shaxsiy huquq va erkinliklari. Bular ayollarning ajralmas huquqlari sifatida e'tirof etiladi hamda boshqa toifadagi huquqlarga ega bo'lishda birlamchi huquqlar hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7- bobi shaxsiy huquq va erkinliklarga bag'ishlangan bo'lib, bu bobda erkaklar qatori ayollarga ham tenglik taalluqli bo'lgan yashash huquqi, shaxsiy daxlsizlik huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, ya'ni jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan har bir shaxsning ishi sud qonuniy tartibda, oshkora ko'rib chiqilib, aybi aniqlanmaguncha u aybdor hisoblanmasligi, sud ayblanayotgan shaxsga o'zini himoya qilish uchun barcha sharoitlar ta'minlab berilishi, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi huquqi, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalash va turar joyi daxlsizligi

huquqi, bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yurish huquqi, fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi, vijdon erkinligi huquqi kabi masalalar o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[1] BMT Bosh Assambleyasining “Dunyomizni o‘zgartirish: barqaror rivojlanishning 2030-yilgacha bo‘lga davr uchun kun tartibi” rezolyutsiyasi. 2015. http://www.un.org/ga/search/view_doc.asp?symbol=A/RES/70/1&Lang=R.

[2] Erkaklar va ayollar manfaati uchun xizmat qiladigan qonunlar: qonunchilikda gender problematikasini hisobga olish bo‘yicha qo‘llanma. Varshava (Polsha), 2017-

[3] <https://www.un.org/ru/sections/universal-declaration/foundation-international-human-rights-law/index.html>

[4] <https://ru.wiktionary.org/wiki>. (murojaat sanasi 17.07.2021).

[5] <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/gender>.

[6] Т.М.Мельник. Гендер как наука. Пособие. – Киев,2004. – С. 10–29.

CONTENT

1.	Bekturdiyeva Shoxina Qurbonboy qizi. Olima va fozila ayol.....3-6
2.	Haqberdiyeva Flora. Kishilarning marosimiy hayotida nonning o‘rni (to‘y va aza marosimlari misolida).....7-13
3.	Sh. K. O‘rinov, Sh. Nematulloyeva. The role of project management in the field of culture and arts.....14-17
4.	G.Sunnatullayeva, Sh.K.O‘rinov. Madaniyat va san‘at sohasini boshqarishdagi maqsadli dasturiy usullar.....18-21
5.	Sh. K. O‘rinov, S. Sadullayeva. Madaniyat va san‘at sohasida mehnatga haq to‘lashning o‘ziga xos jihatlari.....22-27
6.	Sh.K.O‘rinov, M.Nutfilloyeva. Madaniyat sohasida inson resurslarini boshqarish.....28-30
7.	Халлиева К.Р, Юсупова Д.У, Юсупова Д.У. Теоретические основы игрового обучения грамматике на уроках иностранного языка в средней школе.....31-33
8.	Sh.K.O‘rinov, M.G‘aybulloyeva. Boshqaruv madaniyati: tarkibi, funksiyalari, mezonlari.....34-37
9.	O‘razov Alisher Doniyorovich. Tog‘ay murod asarlarida evfemizmlar.....38-42
10.	Kudaybergenova Sapiura Polatbaevna. Qaraqalpaq tilindegi semantikaliq primitivlerdin diskursta sawleleniwi.....43-45
11.	Sh.K.O`rinov, M.Rizoqulova. Innovatsiyalarni boshqarish va qarshilikni boshqarish.....46-48
12.	Xayrullaeva Dilafruz Azamat qizi. Xorazm vohasi oilaviy marosimlari.....49-52
13.	Qambarov Bahodir Inomovich. Tadbirkorlikni rivojlantirish va elektron banklar.....53-56
14.	Qambarova Gulmira Baxtiyorovna. Boshqaruvda gender tenglik masalalari.....57-60